

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI

**Mavzu: XX ASR O'ZBEK SHOIRLARI ASARLARINING TURKCHA
TARJIMALARI (ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINING TURKCHA
TARJIMALARI MISOLIDA)**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5220100 – Filologiya (sharq tillari)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Azizova Nigora Bobir qizi

Ilmiy rahbar: Turkiy tillar kafedrası
professori v.b. f.f.d., Xudoyberganova Zilola

Toshkent 2012

BITIRUV MALAKAVIY ISH HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI:

Sharq filologiyasi va falsafa
Fakulteti dekani
f.f.n., dots. J.T.Ziyamuhamedov

“ ”

Turkiy tillar
kafedrasi mudiri
f.f.n., dots. Q.Sh.Omonov

“ ”

MUNDARIJA

Kirish

I BOB. A.ORIPOV IJODI VA TARJIMON MAHORATI MASALALARI

1.1. Abdulla Oripov hayoti va ijodi

1.2. Tarjimon mahoratining mohiyati

II BOB. ABDULLA ORIPOV SHE'RLARI TURK TILIDA

2.1. Tarjimonning so'z tanlash mahorati

2.2. A.Oripov she'rlarida iboralar tarjimasi

III BOB. A.ORIPOV SHE'RLARI TURKCHA TARJIMALARIDA
TARJIMA MUAMMOLARI MASALASI

3.1. "Aldoqchi so'zlar" tarjimasi masalasi

3.2. A.Oripov she'rlari tarjimasida qofiya va vazn

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotchilar, shoirlar o'z millatining tilidir, hatto dilidir, qalbidir. Ha, adabiyot xalqining ruhiy dunyosi, saviyasi va ma'naviy bir lisoni. She'r sevgisi, nafratlari, hayajon va iztiroblari, umid va qayg'ulari ichida yangrab rivojlangan jamiyatning nafasidir. Shoir esa, o'rni bilan bu jamiyatning nafas yo'li va o'pkasi, o'rni bilan tilidir. Har bir she'r, mutolaa qilinganda, o'quvchiga o'zi yaratilgan jamiyatning xususiyatlari haqida ba'zi narsalar bersa ham, unga doyalik qilgan muhit hisobga olinmasa, she'rning haqiqiy ma'nosini tushunib yetish mumkindir.

She'r o'zi mansub bo'lgan jamiyatga, bu jamiyatning ishonchi, urfi-odatlar, hol-ahvoli bilan uzviy bog'langan. Lekin she'rni haqiqiy she'r qiladigan unsurlar faqatgina shulardangina iborat emas.

She'r koinotning ruhida yashiringan go'zallik va muvozanatning, borliqdagi va dilrabo kayfiyatning shoirona ruhlarda tasvirlangan bir ifodasidir. Ayricha, u yuksaklarda va yana yuksaklarga his qilingan iztirob yoki bu shakldagi xitoblarning bir ko'rinishidir. She'rdagi ovoz va nig'malar, ruhiy kechinmalar va ichki tuyg'ularga ko'ra ba'zan sharqirab-sharqirab, ba'zan esa nozikkina tarzda yangraydi.

Har qanday she'r bir burchakni yorituvchi shu'ladek bo'lsa ham, ayni vaqtda uzoq-uzoqlarga nur taratgan quyoshdir, bundan tashqari, she'r muhabbat va hayajonni uyg'otuvchi nozik bir tuyg'u hamdir. Haqiqiy she'rning og'ushida ko'zlar oydinlikka intiladi, uzoqlar yaqin bo'ladi va ruhlar so'nmas bir qudratga ham shavqqa to'ladi. She'rlar ham munajatlar kabi insonning ichki dunyosidagi o'zgarishlarini, shavqu zavqlarini va mahzunliklarini ham tilga keltiradi, shaxsning buyuk haqiqat bilan uyg'unlashganidek lohutiy bo'lib namoyon bo'ladi. Bu nuqtai nazardan ham munajat bir she'r, cheksizlikka tomon qanot qoqqan har bir she'r ham bir munajatdir. She'r bir ma'noda koinotning bag'rida yashirin va uni musiqaga yetaklagan so'nmas buloqday haqiqatlarni va haqiqatlar haqiqatini topishni maqsad qiladi. Shuning uchun she'r fikrida olam-olam sir, o'tilgan yo'ldagi qorong'ulik va ko'p taraflama pinhoni bir xususiyatga ega, juda qiyin

anglashiladigan, juda serma'no bir ohangdir. Haqiqiy she'rning har bir kalima va jumlasidan sirli bir saroydagi har tovush va ko'rinishdan seskangan hassos bir sayyohning mushohada va tuyg'ulari sezilib turadi. Bu tomondan she'r bir qalb nolasi va bir ruh hayajoni, bir ko'z yoshidir. She'r shoirlarga oid bir dasta so'lmagan chechaklarning atrofga taratayotgan muattar hidlaridir. Tuprog'i toza, suvi tiniq, urug'i ham ma'lum va sog'lom bo'lgan bu gullarning rang va hidiga hech qachon to'yib bo'lmaydi.

Ha, Abdulla Oripov xalqning dardlari va sog'inchlarini, iztirob va ishonchlarini nozik sezgi va kuzatuvlari, chuqur tuyg'ulari bilan tilga oladi. Bularning barchasi boy o'hshatish, oddiy, sodda bir til va uslubga, chuqur ma'noga ega. Abdulla Oripov o'z she'rlari bilan faqatgina o'zbek adabiyotininggina emas, balki so'nggi davrlardagi sharq adabiyotining eng mashhur siymolari orasidan ham o'rin olmoqdadir.

Bugungi kunda mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning eng muhim jabhasi bu tarjimonlik sohasidir. Bu bitiruv malakaviy ishi tarjimon tarjimini qanday qilishi, uni ommaga qanday qilish yetkazib berishi, bundan tashqari tarjimonlik kasbi va mahorati nima uchun kerakligi, shuningdek tarjima tahlili qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek yozuvchilari va shoirlarining asarlari ko'plab g'arb va sharq tillariga o'girila boshlandi. Xususan, A.Qodiriy, O.Yoqubov singari buyuk o'zbek yozuvchilari bilan bir qatorda A.Oripovning she'rlari har turk tiliga tarjima qilindi. Ammo shu kunga qadar Sh.Ibrohimovanning O.Yoqubov asarlari turkcha tarjimalari tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi, uning maqolalaridan boshqa maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan¹. Vaholanki, mustaqillik yillarida o'zbek tilidan chet tillariga tarjima qilingan va qilinayotgan o'zbek adabiyoti durdonalarining asli va tarjima nusxasini qiyoslab o'rganib, tarjimonlarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini tilga olish, ularning kamchiliklari bo'yicha fikr bildirish va ularni bartaraf etish yuzasidan

¹ Иброҳимова Ш. Одил Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши. Номзодлик диссертацияси автореферати. Т., 2010.

tavsiyalar keltirish bugungi kun o'zbek tarjimashunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan maqsad Abdulla Oripov ijodi orqali nafaqat uning yuksak mahorat bilan yozilgan umid mahsulining badiiy-estetik xususiyatini o'rganish, shuningdek she'r tarjimasi, umuman tarjima mahorati qanday bo'lishi kerakligi kabi tasavvurga ega bo'lish, shoir she'rlarining turkcha tarjimalari sifati va saviyasini tahlil etishdir. Buning uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan:

- Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rganib yoritib berish;
- Tarjima mahoratiga oid olimlarning qarashlarini o'rganib chiqib tahlil etish;
- Abdulla Oripovning "Hur o'lkam" kitobi asosida tarjima tahlili qilish;
- tarjimon mahoratining mohiyatini tahlil etish;
- shoir she'rlari turkcha tarjimalarida tarjimonning so'z va ibora tanlash mahorati bo'yicha fikr bidirish;
- tarjimada "aldoqchi so'zlar", vazn va qofiyaning berilishini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Bu bitiruv malakaviy ishida Abdulla Oripovning hayoti va ijodi, shuningdek, shoir hayotining mazmuni hisoblangan she'rlari tahlili, ya'ni "Hur o'lkam" nomli she'riy kitobini o'zbek tiliga tarjimasi tahlil qilinadi. Tarjimonning yutuqlari va kamchiliklari alohida tahlil etiladi.

Tadqiqot usullari. Bitiruv malakaviy ishda tahlil, tavsif, qiyoslash usullaridan fodalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan iboratdir.

I BOB. A.ORIPOV IJODI VA TARJIMON MAHORATINING MASALALARI

1.1. Abdulla Oripov hayoti va ijodi

Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dehqon oilasida 1941 yili dunyoga keldi. Obidiyda qishloq sovetidagi o'rta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, O'rta Osiyo Davlat dorilfununi jurnalistika bo'limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyatli bitirib chiqdi. 1963 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrirlik, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, mualliflar huquqini himoya qilish idorasining rahbari vazifalarida xizmat qilib kelmoqda.

A.Oripovning talabalik yillarida yaratilgan she'rlari respublika vaqtli matbuotida bosilib chiqdi. 1965 yili birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» chop etildi, shundan buyon shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirota» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Hakim va ajal» (1980) «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, unda shoirning she'rdan she'rga, to'plamdan to'plamga, yildan yilga o'sib, ijodiy barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz.

Ayniqsa, 60-yillardan keyingi asarlarida hayot va odamlar haqidagi jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarning tobora chuqur tus olayotganligi seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg'ular bilan badiiy talqin birbiriga uyg'unlashib boradi. Bu, bora-bora teran fikrlash bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanadi, shoirning kamolotidan darak beradi. U ona obrazini chizadimi, birinchi muhabbatga sodiq lirik qahramon obrazini yaratadimi, O'zbekiston haqida kuylaydimi, olam va odamlar haqida she'r to'qiydimi, hamma-hamma o'rinda hayot haqiqati bilan badiiy haqiqatga sodiq qoladi.

Abdulla Oripov she'riyatining hozirgi bosqichi yana ham o'zgacha, ma'naviy-badiiy jihatdan yuksaklikka ko'tarilmoqda. Uning «Haj daftari» (1992)ga kirgan «Hadis»lari ham buni to'la tasdiqlaydi. Hozirgacha u 50 ta hadis-she'r yaratgan bo'lsa, kelgusida uni yuzga yetkazmoqchi. U mustaqil O'zbekiston

madhiyasining muallifi hamdir. Eng muhimi, unda shoir Qur'oni karim va hadisi shariflardagi ma'naviyatni qayta, zamon ruhida tiklash, yangi bosqichga ko'tarishga intilyapti. Abdulla Oripov iste'dodli shoir bo'lganidek, iste'dodli tarjimon hamdir. U Dantening «Ilohiy komediya» asarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'girdi. Abdulla Oripov Ekrasov, L.Ukrainka, Shevchenko asarlarsh ham ona tiliga tarjima qilgan. Ijodkorning she'riy majmualari rus va boshqa qadosh xalqlar tillariga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan.

Abdulla Oripov — noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiyliklik, milliy g'urur, isyonkor ruh, diniy-axloqiy teranlik shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy uyg'onishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurash yo'lida Abdulla Oripov shaxsi va o'tkir shetzriyati misli ko'rilmagan o'rin tutganini qavd etib o'tish joiz. Uning asarlari o'zbek she'riyatini hamon boyitmoqda. O'zbekiston xalq shoiri (1989) Abdulla Oripov munosib taqdirlangan. U Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureatidir.

Insoniyat badiiy tafakkuri mo'jizalaridan biri bo'lgan she'riyat insonning olam va borliqqa hissiy-emotsional munosabati hosilasidir. Insoniyatning quvvai hofizasi zo'r shoirlari yaratgan she'riy durdonalar barcha xalqlarning, barcha avlodlarning ma'naviy mulki bo'lib qoladi. Vaqt o'tadi, davrlar yangilanadi, adabiyotga yangi avlodlar kirib keladi va bu ma'naviy boylikka o'z hissasini qo'shishga chog'lanadilar.

Abdulla Oripov adabiyotda biryoqlamalilik, ritorika, deklarativlik, bayonchilik, "baxtli zamonaga" hamdu sano o'qish avj olgan, adabiyotning ijtimoiy-estetik qimmatini puturdan keta boshlagan bir davrda she'riyat ostonasiga qadam qo'ydi.

Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tdi. Yulduzlar, tog'lar, kapalak haqida yozdi. Ulardan she'r izladi. Biroq u o'qish-o'rganish bosqichini tez bosib o'tdi, she'riyatning missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi. 1962 yilda matbuot yuzini ko'rgan "Kuz xayollari", 1964 yilda "Sharq yulduzi" jurnali sahifalarida e'lon qilingan "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Miltiraydi mitti yulduz", "Burgut" kabi she'rlar o'z ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir

shakllanayotganligidan darak berdi. Shoirning sobiq ittifoqda stalincha zo'ravonlik sharpalari hali butkul daf bo'lmagan, mustabid tuzum hukmronlik qilishda davom etayotgan, adabiyot esa "sots. realizm" iskanjasi ostida ezilish holatida bo'lgan bir sharoitda isyonkor ruh bilan sug'orilgan tug'yonli, lirik-falsafiy, teran mushohadali, hayotni o'zicha ko'rgan chinakam milliy va xalqchil she'rlari og'ir sukunatni titratib yuborgan momaqalldiroq yanglig' yangradi.

"Albomga", "Yuzma-yuz", "Temir odam", "Ayol", "Munojotni tinglab", "O'zbekistonda kuz", "Tilla baliqcha", "Dorboz", "Otello", "Uyqu" kabi she'rlardagi o'ziga xos mushohada, dadillik, haqiqatni anglashga intilish, xalqning dardini aytish, eng muhimi erkni ulug'lash, istiqloлга talpinish tug'ma iste'dod sohibining barchani mahliyo qilib qo'ygan, qizg'in bahs-munozaralarga mavzu bo'lgan muhim fazilatlar edi. Uning she'rlaridan bahramand bo'lish "she'riyat bayrami"ga (Qaysin Quliev iborasi) aylanib ketardi.

Romanlari:

1) "Tilsim (Turkiston dostoni)" (2009)

(Turkistonning tarixi va turkiy til haqida)

2) "Elchi (Afandi o'lmaydigan bo'ldi)" (1999) (Milliy qahramon, zamonaviy

Nasriddin afandi haqida)

3) "Ulus (Forobiyning do'sti)" (2001)

(Abu Nasr Forobiyning O'rta Osiyoga safari)

4) "Zamona zayli" (2006)

(Zamonamiz qahramonlari haqida),

Qissalari:

1) "Surnay navolari" (1991)

2) "Falakning gardishi" (1991)

Ilmiy tadqiqotlari:

1) "Turmush, xulq-atvor va mehnat estetikasi" (1982)

2) "Osmon to'la yulduzlar" (1983) (Tuyg'ular haqida suhbat)

3) "Xalqning o'lmas ruhi" (2000) ("Alpomish" dostoni tax'lili)

4) "Tong yulduzi shu'lalari" (Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari tahlili)

5) "Ruhiyat ehromi" (2006) (Inson ruhiyati va milliy ruh haqida)

Tarjimalari:

1) "Qoraqalpoqnoma", "Sahro bulbuli", "Bobomga xatlar", "Berdaq",
"Oydo's bobo" Tulepbergen Qaipbergenov

2) "Sho'robod" eron yozuvchisi Muhammad Ali Jamolzoda

3) "Tiriklik qo'shig'i" qozoq yozuvchisi Muxtor Mag'avin

4) "Poygato'riq" qozoq yozuvchisi Abish Kekilboev

5) "Quyonglar va bo'g'ma ilonlar" rus yozuvchisi Fozil Iskandar

6) Italyan yozuvchisi Dino Butsatining 10ta hikoyasi

To'plovchi:

1) "Adabiyot va zamon" (1984)

2) "Katta yo'l boshida" (1987)

3) "Zamon ruhi" (2001)

4) "Yosh yuraklar yolqini" (2004)

5) "Mustaqillik davri adabiyoti" (2006)

6) "Buyuk kelajak manzaralari" (2010)

Saylanma (chop qilinmagan):

12 jild

1.2. Tarjimon mahoratining mohiyati

Tarjima - ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali tarjima asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iboratdir.

Tarjimonlik va tarjimachilikning rivojlanishi ko'plab davlatlardan o'zbek va chet tillariga tarjima qilinib kelinmoqda. Bundan tashqari o'zbek tilidagi adabiyotlar boshqa tillarga tarjima qilinmoqda. Bunda faqatgina o'rganish emas, balki "tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlar, olimlar bir-birlari bilan fikrlashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqtda bo'lganlar. Hamma zamonlarda –hox adabiy, hox ilmiy, hox siyosiy kitoblar tarjimasi bo'lsin – xalq, u

yaratgan yoki yaratayotgan madaniyat, fan, adabiyot va san'at bundan faqat naf ko'radi.²

Tarjima tarixini yaratishdan maqsad faqat tarix yaratish, tarjimachilik san'atida mavjud tarixiy an'analarni o'rganish va boy madaniy merosni ilmiy tomondan o'zlashtirish uchungina emas, balki klassik tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari bilan realistik tarjima prinsiplari o'rtasidagi asosiy belgilarni farqlash, xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, bizning davrimizda keng quloch yozgan badiiy ijodning bu sohasida ro'y berayotgan adabiy novatorlikning mazmunini idrok qilish, mohiyatini belgilash, chinakam badiiy tarjima yaratish evolyusiyasi va istiqbolini aniqlash, hamma davrlarda badiiy tarjimaning asosiy illatlaridan biri bo'lib kelgan, bizning davrimizda ham yuz berayotgan ikki asosiy xavf: formalizm va asarni butunlay o'zgartirib yuborish hollarining tadrijini o'rganish va uni bartaraf qilish yo'llarini qidirib topishdan iborat.³

Tarjima ustida ishlashdan oldin har bir shaxs tarjima mahoratidan ham xabardor bo'lishi kerak. Tarjima mahorati haqida quyidagi buyuk allomalarimizning fikrlarini misol tariqasida keltirish mumkin:

M. Gorkiy fikricha, **mahorat** — bu til, mavzu va syujet yig'indisida, avtorning shaxsiy zakovatida ko'rinadi.

V. V. Mayakovskiy badiiy **mahorat** xususiyatlarini muntazam mehnat orqasida yuzaga keladigan, so'z ustida ishlash orqali erishiladigan malaka va usullarda, qofiya, vazn, ohangdosh tovush va so'zlarning birday qaytarilishida (alliteratsiya), obraz va uslubga sayqal berishda, deb biladi.

K. Yashinning aytishicha, **mahorat** xudo tomonidan yuborilgan ilohiy narsa bo'lmay, bu isge'dod egasining ko'p yillar mobaynida orttirgan professional tajribasi bilan hayotni chuqur bilish, mehnatsevarlikning uzviy birligidir.

S. Borodin **mahorat** haqida gapirganda, asosiy fikrni badiiy asar negizida yotgan xarakter tahlili, ularning o'zaro munosabati va bu xarakterlarni ifodalash

² F. Саломов. Бобоев Т. Туркий тиллардан таржима қилиш проблемасига доир// Таржима санъати. Ғ.Ғулом номидани адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1973

³ Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Тошкент, Ўқитувчи нашриёти, 1983.

vositalariga yo'naltiradi. Mahorat obraz va kompozisiyaning ifodasi uchun aniq shakl tanlay bilishda, mazmun va shaklning monandligida, deydi. Prof. G. P. Vladimirovning fikri ham shunday.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni xulosalab, quyidagicha ifoda etish mumkin: badiiy mahorat *asarda yoritilgan badiiy (yoki real) voqelikni ko'ra bilish va chuqur o'rganish san'ati, shu voqelikni badiiy obrazlar vositasi bilan aks ettirish malakalarini kamolga yetkazish, adabiyotning g'oyaviy-badiiy vazifalari ichiga to'la kira bilish va ularni ilmiy asosda tahlil qila olish, tilning lug'at tarkibidagi turli qatlamlar va yozuvchilik san'atining qudratli unsuri hisoblangan so'zning barcha nozik ma'no jilvalarini aniq, to'la-to'kis seza olish qobiliyatidir.*

«Yozuvchi mahorati» va «tarjimon mahorati» tushunchalari bir-biriga bog'liq. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, agar original ijodda (asl nusxani yozish jarayoni nazarda tutiladi) avtor o'z asaridagi ob'ektga birinchi bo'lib kirishib, badiiy voqelikni o'z ona tili imkoniyati bilan aks ettirsa, tarjimon bir varakay ikki ishni bajaradi.

Birinchi bosqichda, u yozuvchi ketidan borib, yuqorida qayd qilingan mahorat talablari asosida asl nusxada tasvirlangan ob'ektni qaytadan, xuddi muallif singari, badiiy yo'sinda o'zlashtiradi; **ikkinchi bosqichda esa**, boshqa tilda o'quvchi kitobxonni ko'z oldiga keltirib, o'sha ikkinchi til xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tarjima matnini yaratadi. Demak, *birinchidan*, tarjimon asardagi badiiy voqelikni bilishi, bu voqelik ichiga asl nusxa muallif bilan birgalikda kira olishi, muallif va kitobxon dilini tushunishi, ularning dunyoqarashi va idrok etish hissini anglab yetishi, ikkinchi tomondan, tarjima adabiyoti vakili va o'quvchisi **sifatida** asl nusxani qayta yaratishi lozim bo'ladi.

Original ijodda ham, tarjimada ham badiiy tasvir vositalari va she'rda so'z tanlash muammosi kuchli mahorat talab qiladi. **Adib** asar yaratayotganda qanday so'z ishlatsam ekan, deb maxsus o'ylab o'tirmaydi. Xayolda paydo bo'lgan fikrni o'sha zahotiyloq aniqroq qilib qog'ozga tushiradi. **Tarjimada** esa vaziyat o'zgacharoq. Tarjimon asarni boshqa tilda qayta yaratish uchun muallifning fikrini uzoq vaqt pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab so'z

tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalashi tashvishida yonadi.

Tarjimon tinmay mehnat qiladi. Bu xususda **L. Penkovskiy**ga murojaat qilaylik: *«Mening tarjimam nashr qilingandan keyin bir yil yoinki ko'proq vaqt o'tar, shunda ham, har qachongiday, nimadir o'z poyoniga yetmaganday, qayerdadir tarjimaning u yoki bu tomonlarini mustahkamlash yo bo'lmasa almashtirish kerakday, qayerdadir qolib ketgan bo'shliqni to'lg'azish, matnning uyoq-buyog'ini tekislash, tozalash, silliqdash, qora dog'larini yuvish, rangi-ro'yini oydinlashtirish kerakday ko'rinadi. Agar o'z ishingni sevsang, doim yetuklikka intilsang, shunday bo'laveradi. Bu ishning esa cheki yo'q». deb ta'kidlaydi.*

Haqiqatdan ham shunday, agar har bir inson o'z ishini sevsang, o'z ishi ustida muntazam shug'ullansa yetuklikka, komillikka erishadi. Bu bitiruv malakaviy ishida Abdulla Oripovning "Hur o'lkam" nomli she'riy kitobini o'zbek tiliga tarjimasini ko'rib chiqamiz.

II BOB. ABDULLA ORIPOV She'RLARI TURK TILIDA

She'rni she'r qilgan, unga ruh, ma'no va mazmun big'ishlagan eng asosiy unsurlardan biri muhabbat bo'lsa, boshqasi esa iztirobdir. Chunki muhabbat dunyoga kelgan har bir mavjudotda eng asosiy bir xususiyat, eng porloq bir nur, eng buyuk bir qudratdir. Muhabbat paydo bo'lishi bilan, avvalo, har bir ruhni yuksaltiradi va undan ham yuksaklarga parvoz qilishga chorlaydi. Keyin esa bu sevgi bilan oshno bo'lgan ruhlar so'ngsizlikka qarab his etilayotgan barcha hislarni ko'ngillarga hokim qilib chorlaydi. Ular bu yo'lda o'lib-o'lib tiriladi.

Ruhlar sevmagan insonni samolarga olib chiqmaydi. Ular yuz yildan oshiq yashasalar ham hech qachon komil bo'lmaydilar. Manmanlikni qorong'ulikdan hech qachon chiqa olmaganidek, sevgidan yiroq ko'ngillar ham hech kimni sevmagan, sevgisini sezmagan va borliqning qalbidagi muhabbatdan habarsiz holda qorong'uda ketadilar.

Holbuki, shoirlar o'zgalar uchun yashagan va yana insonlar orasida muhabbatning tarqalishida eng buyuk hizmat qilgan shaxslardir. Shu sababli, muhabbatsiz she'r bo'lmagani kabi, sevmagan shoir ham bo'lmaydi. Shunday ekan, Abdulla Oripov O'zbekistonning milliy shoiri o'laroq, o'z ilhomini ishonchida, koinotning sevgisidan topadi va o'z xalqiga, hatto butun insoniyatga ham muhabbatga va go'zallikka chorlaydi.

Go'zallik	Güzellik
Kuzning rutubatli oqshomi edi. Bog'lar sekingina chekar edi oh. Ruhimda bir xazon ayyomi edi, Ajib go'zallikka duch keldim nogoh. Misli xayol edi u malak siymo, Chiroy olamining tengsiz sayqali. Ko'zlarim oldida turardi go'yo. Navoiy g'azalin tirik haykali. Bir zum ko'zlarimdan yo'qoldi uyqu, Bir zum bahor kabi yorishdi olam. Bir zum xayolimdan chekindi qayg'u, Bir zum yuragimdan ketdi g'am-alam. Bir zum go'zallikning huzurida jim Samoviy hislarga bo'lib qoldim band. O, dono tabiat, o buyuk hakim,	Güzün retubetli bir akşamı idi. Bağlar sessizce çeker idi ah, Ruhumda bir hazan eyyamı idi, Tarifsiz bir güzellikle karşılaştım ansızın. Misli hayal idi o melek sima, Işık aleminin denksiz güzeli Gözlerimin önünde duruyordu güya Navai gazelinin canlı heykeli. Bir an yok oldu gözlerimden uyku, Bir an bahar gibi yeşerdi alem. Bir an hayalimden çekildi kaygu, Bir an gitti yüreğimden gam-elem. Bir an gitti o güzelliğin huzurunda kesildi sesim, Semavi hislerle doldum içten

Hikmat ko'rmadim hech senga monand. O'zing yuraklarga cho'ktirib kadar, Xalos ham qilursan rahm etgan damda. Shunday go'zallarni yaratmasang gar, Qolib ketarmidik doimo g'amda.	O eʃsiz tabiat o b�y�k hakim, Ne hikmet bir benzerini g�rmedim. Sen ki y�reklere sindirip keder, Azat da edersin �evkatlı bir demde B�yle g�zelleri yaratmadaydın e�er, Daim kalır mıydık ki biz alemde.
--	---

Kuz. Kuz bu daxaxtlarning sarg'ayishi ya'ni yam-yashil barglar o'rnini sarg'ish, qizg'ish ranglar egallashidir. Abdulla Oripov **“Go'zallik”**⁴she'rida Kuzning rutubatli oqshomi haqida gapiradi. Biz kuz deganda faqat daraxtlarning rangini o'zgarishi bilan birgalikda insonning so'lg'in, g'am-g'ussaga to'la chehrasini tushunamiz. Lekin turk tilida kuzning rutubatli oqshomi emas, balki **“rutubetli”**⁵ so'zi ularda “namli yer” ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilida **“rutabatli”**⁶ so'zi esa birinchi ma'osi **“namli yer”** bo'lsa, ikkinchi ma'nosi g'am-g'ussali, kishi erkini bo'g'adigan kabi ma'nolarni bildiradi. Abdulla Oripov bu qatorda kuzning g'am-g'ussaga, dargga to'la oqshomlarni nazarda tutmoqda. Kuzning g'am-g'ussaga, dardga to'la oqshomini ko'rib, bog'lar ham ohu nadomat chekayotganini ta'kidlamoqda:

Kuzning rutubatli oqshomi edi.
Bog'lar sekingina chekar edi oh.
Ruhimda bir xazon ayyomi edi,
Ajib go'zallikka duch keldim nogoh.

* * *

G z n retubetli bir ak amı idi.
Ba lar sessizce  eker idi ah,
Ruhumda bir hazan eyyamı idi,
Tarifsiz bir g zellikle kar ıla tım ansızın.

⁴ Абдулла Орипов “Хур ўлкам” (H r  lkem), Истанбул – 1999 йил

⁵ T rk e s zl k 2.cild Ankara 1232 sayfa

⁶ Ўзбек тилининг изо ли лу ати, 3-том, 399-бет

Ruhimda bir xazon ayyomi edi (Ruhumda bir hazan eyyamı idi) qatorida **“xazon”⁷** so’zi g’amga to’la qalbi azob-uqubatda majruh bo’layotgani, ado bo’layotgani tasvirlanadi. Lekin tarjimada **“hazan”⁸** so’zi noto’g’ri qo’llanilgan. Chunki **“hazan”** so’zi faqat bir ma’noda ya’ni o’zbek tilida **“kuz fasli”** ma’nosida ishlatiladi. Ya’ni *“xazon ayyomi”* g’amli kunlarni ifodalasa, turk tilida **“kuzning baxtli kunlari”** ma’nosida qo’llaniladi.

Bir zum xayolimdan chekindi qayg’u qatoridani tarjimaga qaraydigan bo’lsak, bu yerda qayg’u so’zi bilan uyqu so’zining qofiyalanishi uchun **“qayg’u”**⁹ o’rniga **“kaygu”¹⁰** so’zi ishlatilgan. Lekin turklarda *“kaygu”* so’zi emas, balki **“kaygi”** so’zi ishlatiladi. Tarjimaja qofiyani moslashtirish emas, balki ma’noni saqlash katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham o’zbeklardagi qayg’uni berish uchun *“üzüntü”* yoki *“tasa”* so’zini bersak maqsadga muvofiqdir. Ya’ni:

Bir an yok oldu gözlerimden uyku,

Bir an bahar gibi yeşerdi alem.

Bir an hayalimden çekildi üzüntü,

Bir an gitti yüreğimden gam-elem.

Shuningdek o’zbek tili grammatikasida g’am va alam chiziqcha bilan yozilsa, turk tili grammatikasida chiziqcha bilan yozilmaydi.

O’zing yuraklarga cho’ktirib kadar qatoridagi o’zbek tilidagi *“kadar”* so’zi tarjimada **“keder”** deb tarjima qilingan. O’zbek tilidagi **“kadar”**¹¹ so’zi **“xiralik”**, **“loyqalik”**, **“g’am”**, **“g’ussa”**, **“mung”**, **“maxzunlik”**, **“hafalik”**, **“g’ashlik”** kabi ma’nolarni anglatasa, turk tilidagi **“keder”** so’zi **“taqdir”** ma’nosini anglatadi.

Qisqacha qilib shuni aytish lozimki, Abdulla Oripovning *“Go’zallik”* she’ri quyidagicha ifodalaniladi:

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-том, 376-бет

⁸ Türkçe sözlük 1.cild Ankara 628 sayfa

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-том, 223-бет

¹⁰ Türkçe sözlük 2.cild Ankara 820 sayfa

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-том, 291-бет

Kuzning g'am bilan to'la oqshomlarini ko'rib, bog'lar ham g'am oldida bosh egadilar. Ruhimda kechayotgan g'am-alamlar, meni tengi yo'q go'zallikka chorlamoqda. Bu malakning siymosi huddi xayoldan o'tayotgandek go'yo. Bu go'zallik oldida boshqa go'zalliklar hech narsa emas. Mening ko'zim oldimda faqat Navoiyning g'azali huddi haykaldek qad ko'tarib turibdi (Bunday deyilishiga sabab Navoiyning barcha g'azal-u baytlari Allohga bag'ishlanganligidir). Bu haykal ko'z oldimdan o'tishi bilanoq hatto ko'zlarimga uyqu ham kelmadi. Ko'z o'ngim bahor kabi yorishib ketdi. Hatto qalbimdagi qayg'ular, g'am-alamlar ham meni tark etgandek bo'ldi. Bu go'zallik oldida qotib qoldim. Ilohiy hislarga berilib, tabiatning qanchalar go'zalligini hamda bu go'zallikning qanchalar yashirin ekanligini his qildim. Agar bunday go'zalliklarni Alloh bizni qalbimizga singdirmaganda, biz faqat g'am-alamli, qayg'uli kunlarni boshdan kechirib, hayotning bunday go'zalliklaridan bahramand bo'lolmas edik.

2.1. Tarjimonning so'z tanlash mahorati

A.Oripov she'rlari tarjimasida tarjimonning qator yutuqlari mavjud. Masalan, "Ayol" she'ridan olingan quyidagi bandda birdaniga ikkita yutuqni ko'rsatish mumkin:

Yillar ham o'tdilar hamon u yolg'iz,
Mung'ayib termular botguvchi kunga,
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan **baxt** bersang bo'lmasmi unga?!

Yillar ge'cip gitti, o hep yalnız,
Mahsun mahsun bakar batan güne,
Ey! Namert tabiat, var mı sende his,
Yeniden bir **fırsat** versen olmaz mı bu geline!.

Bu she'rdagi "mung'aymoq"¹² fe'li holat ma'nosini bildiradi, ayolga nisbatan ishlatilgan bu fe'l "ma'yus, tushkun holda bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Bu fe'ling turk tilidagi muqobili yo'q. bu so'zning o'rnida tarjimon "mahsun mahsun" – mahzun, g'amgin sifatini ishlatib to'g'ri yo'l tutadi. Chunki takroran ishlatilgan "mahsun mahsun" sifati aynan "mung'amoq" fe'liga xos ma'noni to'liq va aniq ifodalagan. Xuddi shu bandda "baxt" so'zi o'rnida turk tilida "**fırsat**" – "fursat" so'zi ishlatiladi. To'g'ri, turk tilida baxt ma'nosini "mutluluk" so'zi bor. Lekin bu so'zni qo'lash unchalik to'g'ri bo'lmasdi, ya'ni tarjimada turk tiliga xos uslub saqlanib qolmasdi.

Yoki shoirning "Meni olib keting" degan she'ri tarjimasiga qaraylik:

Tinch edi hamma yoq, **tinç** edi har yon,

Titradi go'yoki yer bilan **osmon**.

Durgundu her taraf, **sakindi** her yer,

Titredi sanki bir anda **asuman** ile yer.

Tarjimon "tinç" so'zi uchun "**durgun**" va "**sakin**" so'zlarini tanlab to'g'ri yo'l tutadi. Chunki "tinç" so'zining "dınç" turkcha varianti mavjud bo'lsa-da, bu so'z "kuchli, baquvvat, mustahkam" ma'nolariga ega. Tanlangan so'zlar esa "barqaror", "sokin" ma'nolarini bildiradi va shoir nazarda tutgan ma'no uchun xizmat qiladi. Shuningdek, turk tilida "osmon" so'zi uchun "gök", "felek", "asuman" so'zlari bor, lekin tarjimon "asuman" so'zini ishlatadi. Bu so'z qolgan ikkisi qaranganda nafaol bo'lsayam, badiiy matnda keng ishlatilgani uchun poetik ruhni ifodalash uchun eng ma'qul variant, deb o'ylaymiz.

"Qaqramoq"¹³ fe'li "nami qochib yoki suvsizlikdan, tashnalikdan qurib qolmoq, quruqshamoq" ma'nolarini bildiradi. Tarjimon bu so'z uchun turk tilidagi "çatlamak" fe'lini ishlatadi. Bu so'z "1.Parçaları ayrılıp dağılmayacak biçimde

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-том, 642 бет

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-том, 270 бет

yarılmak 2. Bir yüzeyde karışıqlar çizgiler oluşmak 4. mec. Aşırı yemekten yorgunluktan ağlamaktan ölecek duruma gelmek veya ölmek 4. mec. Sıkıntı sevinç yalnızlık heyecan sabırsızlık kıskançlık vb ruhsal durumları aşırı derecede duymak)”¹⁴ ma’nolariga ega. Tarjimon ushbu so’zni qo’llab she’rning ma’nosini kuchli chiqishiga sabab bo’ladi. Birinchidan, “suvsizlik”dan (ya’ni bo’salarsiz) lablarning qaqrab, yorilib ketgani ifodalansa, ikkinchidan, bundan azoblanish, qiynalish hissining borligi ham tushuniladi.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko’mir.
Çatlayan dudaklarında alevli nefesi,
Geceler geçmişini eyledi kömür.

Shoirning “Yillar armoni” she’ridan olingan keyingi parchaga qaraylik:
Inson o’z umrini o’ylasa ko’p vaqt.
Qiynaydi o’zidan o’tgan qusurlar.
Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat.
Kimdandir **so’ralmay qolgan** uzrlar.

Tarjimada:

Insan tüm yaşamını bir düşünse uzun uzun,
İç i vicdan azaplarıyla dolar, başjmdan geçen pışmanlıklar
Bazı zaman birilerine söylenmeyen şükran,
Bazen de kimilerinden **esirgenen** özürler.

Keltirilgan bandda tarjimon “so’ralmay qolgan” fe’li uchun “esirgenen” so’zini ishlatadi. Turk tilidagi “esirgemek” fe’li “esergemek – saqlamoq, himoya qilmoq, 1. korumak himaye etmek vikaye etmek 2. bir şeyi yapmaktan veya

¹⁴ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.402.

vermekten kaçınmak”¹⁵ mazmunini bildiradi. Tarjimonning mahorati shunda ko’rinadiki, u “so’ralmay qolgan” fe’lini to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilmaydi, balki unga mazmunan mos kelgan “esirgenen” so’zini qo’llaydi, bu so’z esa shoir nazarda tutgan ma’noni to’laligicha badiiy shaklda ochib bergan.

Shoirning “Yillar armoni” she’ridan olingan quyidagi to’rtlikda insonning dunyoni mukammal ko’rish, qabul qilish orzusi to’g’risida so’z ketadi. Biroq shoir dunyoni mukammal ko’rish uchun insonning o’zi hamar tomondan barkamol, yetuk bo’lishi kerakligini ta’kidladi. Darxaqiqat, shoir basharti insonning o’zi ham buyukligini saqlagan holda, ham ruhan, ham qalban, ham aqlan mukammal bo’lgandagina, dunyoni shunday ko’ra olishi mumkinligini e’tirof etadi.

Mukammal ko’rmoqchi bo’ldik dunyoni,

Yetuk bo’lolmadik o’zimiz biroq.

O, yillar armoni, yillar armoni,

Armon ko’rmadim men sizdan buyukroq

Turkcha tarjimasi:

Eksiksiz tasavvur edelim dedik dunyayi,

Ilk önce, kendimiz olamadık **layık**.

O ki yılların ukdesi, yılları ukdesi,

Görmedim sizden büyük gerçekleşmeyen arzu.

Tarjimonning shoirning ushbu g’oyasini to’g’ri angladi. Shuning uchun tarjimada “**layık**” so’zini ishlatadi. **Layık** so’zi o’zbek tilidagi “loyiq” so’zi singari “kimgadir, nimagadir teng kelmoq, mos kelmoq, mutanosib bo’lmoq” degan ma’nolarni bildiradi. Demak, tarjimon dunyoni kamchiliksiz, bequsur ko’rish uchun unga loyiq bo’lolmadik, degan tarzdagi tarjimini amalga oshirgan va umuman olganda shoirning niyatini to’g’ri anglagan va to’g’ri ifodalay bergan, deyishimiz mumkin. Xuddi shu singari, tarjimon “mukammal” so’zi uchun

¹⁵ Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изоҳли луғат 358 бет ; Türkçe sözlük 650 бет

“**eksiksiz**” – kamchiliksiz, bequsur soʻzini ishlatadi. Albatta, «mukammal» soʻzining turkcha muqobili bor, lekin turkcha tarjimada **eksiksiz** soʻzini berilishi A.Oripovning gʻoyasini yanada yorqinroq va aniqroq koʻrsatib berishga yaragan, deyish mumkin.

“olis” soʻzi “soʻzlovchidan uzoq masofada joylashgan” degan maʼnoni bildiradi. Shoir bu soʻzni “xotira” soʻziga ishlatib, uning ancha oldin, oʻtmishga oidligini bildirmoqchi boʻladi. Bu oʻrinda tarjimon turk tilidagi “oʻtgan davr, oʻtmish” maʼnosini anglatuvchi “**mazi**” soʻzini qoʻllab toʻgʻri yoʻl tutadi:

Qoʻl ogʻrigʻi bosilsa,
Dil ogʻrigʻi boshlanar.
Olis xotiralardan
Qoʻngil tagʻin gʻashlanar.

(“Dil ogʻrigʻi”)

Beden yarasi kesilir de
Gönül yarasi başlar.
Mazideki hatıralardan
Gönül gamlanır.

A.Oripov sheʼrlarining asl matni va turkcha tarjimalarini solishtirib tahlil etish natijasida soʻz tanlash masalasida tarjimonlar tomonidan yoʻl qoʻyilgan bir qator kamchilik va nuqsonlar koʻzga tashlanadi.

Ularga alohida toʻxtalib oʻtamiz:

A.Oripov “Ayol” sheʼri Ulugʻ vatan urushi yillarida beva qolgan va urushdan qaytmagan eriga sodiq qolgan ayollarni ulugʻlash, ularga hurmat-ehtirom koʻrsatish maqsadida yozilgan. Ushbu sheʼr tarjimasini koʻrib chiqaylik:

“Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan koʻksida yolgʻiz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, doʻstlarim,

Abadiy visol deb bildi kelinchak”—bandining tarjimasida tarjimon nima sababdir “ko’ksi” so’zi o’rnida “göz” –“ko’z” so’zini ishlatadi. Natijada “qurigan ko’ksi” iborasi o’rnida “qurigan ko’zi” tushunchasi paydo bo’ladi. Shoir “qurigan ko’ksi” iborasi orqali ayolning nochor ahvoldaligini, ochlikdan sillasi quriganligini, hattoki ko’kragida sut ham qolmaganiga urg’u bermoqchi bo’ladi. Tarjimonning fikriga ko’ra esa, kelinning yig’idan ko’zlari qurigani ma’nosi tushuniladi. Aslida tarjimon agar she’rdagi iborani saqlab qolganida ma’no kuchliroq ifodalangan bo’lardi:

Sevgiden yetim, ömürden yarım,
Kuruyan gözlerinde yalnız bir beşik,
Ebedi firakı, heyhat, dostlarım,
Ebedi visal sandı zavallı gelincik.

Shoirning “Oxirat” she’rining 3-bandida “jar” (1.yerning chuqur, o’yiqli joyi, chetlari o’pirilgan chuqur soylik, chuqurlik, 2. Ar. baland ovoz bilan, ochiq e’lon qilish)¹⁶ so’zi ishlatilgan bo’lib, tarjimon “haber” – “xabar” so’zini ishlatadi. Biroq buning sababini aytish qiyin. Ya’ni shoir nazarda tutgan oxirat zamonda “yo’lga qarasang, jar ko’rinadi”, “go’daklarning tushiga ajdar kiradi” ta’riflari turk tilida “yo’lga tushsang, xabar keladi”, “bolalarning tushiga ajdar kiradi” ma’nosini kasb etadi.

Yo’lga boqsang ko’ringaydir **jar**,
Go’daklarning tushida ajdar.
Tuni bo’yi yigitlar **bedor**,
Yostiqlarin tagida xanjar.

Yollara düşsen duyulur **haber**,
Bebeklerin düşünde ejder.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-том, 73 бет

Geceler boyu yigitler **yorgun**,
Yastiklarning altida hançer.

Xuddi shu bandda “uyg’oq, uxlamagan” ma’nolariga ega bo’lgan “bedor” so’zi uchun tarjimon “yorgun” – “charchoq, charchagan” so’zini ishlatadi. Holbuki, turk tilida aynan poetik matn uchun xos bo’lgan, “uyqusiz”, “bedor” ma’nosiga ega bo’lgan “bidar”¹⁷ so’zidan ifodalanilishi kerak edi.

Ayrim hollarda tarjimonning she’rning asl matnida mavjud bo’lmagan iboralar, birikmalarni kiritgani kuzatiladi.

Qiyoslang:

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O’n to’qqiz yoshida beva qoldi u.

Yigitler mektuplarini yazdiklarinda kanlarindan, (17 ta bo’g’in)
Gelinler firaklarindan çektiklerinde YA HU, (15 bo’g’in)
Onunda koruyucusu, erkeği, geri dönmedi cenkten, (18 ta bo’g’in)
Ondokuz yaşında dul kaldı, gözleri sulu. (14 ta bo’g’in)

Ushbu to’rtlikning 4-qatorida “gözleri sulu” – “ko’zlari yoshli” iborasi kiritilgan. Albatta bu ibora to’rtlikdagi barmoq vaznini saqlab qolish uchun ishlatiladi. Biroq e’tibor qilsak, tarjimada bo’g’inlar miqdorining tengligiga amal qilinmagan. Bu o’rinda avvalgi qatorlarda ham bo’g’inlar miqdorini kamaytirish, yangi tushunchani kiritmaslik kerak edi.

“Ayol” she’ridan olingan keyingi parchada ham ayrim kamchiliklar uchraydi. Birinchidan, o’zbek tilidagi “berahim” so’zi “rahm, shafqati bo’lmagan”

¹⁷ Турецко-русский словарь. С. 114.

ma'nolarga ega. Biroq turk tilida bu so'zning muqobili yo'q. shuningdek, yozuvchi ishlatgan "sheva" so'zining "1.Tilshunoslikda umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til 2. ayn. Til 3 kam qo'll. So'z. 4. O'ynoqilik, nozkarashma 5. Ishva 6. Odat, ravish, yo'sin, qonun-qoida, yo'l-yo'riq)" ¹⁸ ma'nolari bor. Ammo tarjimon bu o'rinda "işve" "ishva" so'zini ishlatadi. Bu so'z "ishva, nozu karashma (kadınların ilgi çekmek gönül çekmek için takındıkları hoş aldaticı tavır)"¹⁹ mazmunini tashiydi. Shoir "vafo shevasi" tushunchasini ishlatar ekan, "vafo"ni har kim har qanaqa tushunishini nazarda tutadi. Albatta, yuqorida keltirilgan misoldan ko'rinadiki, o'zbek tilida "sheva" so'zining "ishva" ma'nosi bor. Ammo har ikki tildagi bu tushunchani tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun vafoning tili bo'lganidek, kimlar uchundir halok bo'lgan er uchun umr bo'yi aza tutish ham vafoning ko'rinishlaridan biri – "sheva" (odat, qonun-qoida) ekanligini, uning naqadar buyuk va muqaddasligini ta'kidlaydi. Bu o'rinda "ishva, nozu karashma" ma'nolarini bildiruvchi "işve" – "ishva" so'zini ishlatish o'rinsiz:

Nahot ishq qismati buncha **berahim**,

Bunchalar buyuksan, vafo **shevasi**.

Ne var ki aşkın takdiri bu, **bi-rahim**,

Ne kadar büyüksün vefa **işvesi**.

Keyingi to'rtikda keltirilgan "butkul" so'zi harakat, holat ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan keladi va o'sha ish, harakatning to'laligicha, busbutun bajarilib tugatilganini bildiradi. "butkul" so'zi uchun turk tilida "büsbütün", bütün, tamamiyla so'zlaridan biri ishlatilishi mumkin edi. Lekin quyida berilgan she'r parchasiga e'tibor qilamiz:

Qalamimning kuchi yetmadi,

¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-том, 562-353 бетлар

¹⁹ Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изоҳли луғат 412 бет ; Türkçe sözlük 1001 бет

Hislarimni butkul to'kmoqqa,

Do'stim, tingla yaproqchalarning

Shivirlashi eshitilmoqda...

Kalemimin gücü yetmedi,

Hislerimi hissettiğim gibi dökmeye.

Dostum, dinle yaprakcıkların

Hışırıtısı duyulmakta...

Tarjimon keltirilgan banddagi “Hislarimni butul to'kmoqqa” satrni “Hislerimi hissettiğim gibi dökmeye” – “Hislarimni his etganimday to'kmoqqa” deb tarjima qiladi. Bunda tarjima natijasida shoir nazarda tutgan ma'no to'lik aks etmagan. Ya'ni shoir butun his-tuyg'ularini yozib-sochishga qalamining kuchi yetmasligini bayon etadi. Bunda u qalbidagi yaxshi-yomon hissiyotlarining barchasini so'nggisiga qadar ifodalash tilagini bildiradi.

Shuning uchun ham shoir “butkul” va “to'kmoq” so'zlarini ishlatadi. Turk tilidagi tarjimada esa shoir hislarini his etganiday to'kish istagi bildiradi. Bunda tarjimon nimani nazarda tutganini ham tushunish qiyin.

Shoirning “Maktub” she'ridan olingan keyingi to'rtlikda qo'llangan “benishon” so'zi “biron-bir belgisi bo'lmagan” mazmunini tashiydi. Tarjimon bu so'z uchun “habersiz” so'zini ishlatadi. “habersiz” so'zi “benishon” so'zining ma'nosini to'g'ri va to'liq aks ettiradi deya olmaymiz. Chunki yozuvchi yoshlikning benishon o'tishi deganda, yoshlik – beboshlik davrida hech narsaga erishmay, maqsadsiz o'tgan hayotni nazarda tutadi. Tarjimon esa “habersiz” so'zi orqali kimning nimadan xabarsiz hayoti o'tishini nazarda tutgani noma'lum. Shu bilan birga, tarjimon shu satr oxiriga **yer yer** takroriy so'zini qo'shadi. Bu takroriy so'z turk tilida “o'rni o'rni bilan”, “vaqti vaqti bilan”, ya'ni “har doim emas”, “muntazam bo'lmagan holatda” degan ma'nolarni bildiradi.

Demak, shoir she'rining turk tilidagi tarjimasi bilan ma'nosini solishtirsak, farqli fikrlar ifodalanganini ko'ramiz. Ya'ni turkcha tarjimada “insonning yoshligi

bilan vaqti vaqti bilan xabarsiz, sassiz o'tadi" degan g'oya ilgari suriladi. A.Oripov esa aksincha, odamning yoshligi doim samarasiz o'tishini ta'kidlaydi.

Qiyoslang:

Yillar o'tib ketar takror va takror,
Yoshlik ham o'tadi **benishon**, besas.
Lekin o'sha choq ham xo'rsinib, bir bor
Sevgandim, nabiram, deya olsak bas...

Yillar ge'cip gider tekrar ve tekrar,
Gençlik de ge'cer **habersiz** ve sessiz **yer yer**,
Lâkin o çağ dilde ah, gönülde eyvahlar
Ben de sevmiştim torunum, diyebilsek yeter.

Keyingi bandda shoir "inson umrining paykondek uchib o'tib ketganligini" yozadi:

Bir qarasam, **paykondek**,
Umr uchib ketmishdir.
Bilmadim, u chaqin –o't,
Qay manzilga yetmishdir.

(“Dil og'rig'i”)

Endi tarjimasiga diqqat qilsak, “paykon” so'zining tushib qolganligini ko'ramiz. Natijada tarjimada “o'girilib orqaga bir qarasam, umr suv kabi oqib ketganligi” yuzaga chiqadi. Umrning o'qdek uchib o'tishi ko'z ochib yumguncha, bir lahzada o'tib ketganligi ma'nosini bildiradi. Umrning suvdek oqib o'tishi o'xshatishida esa shu bir lahzalik muddat ma'nosini aks etmagan:

Dönüp de bir baksam geriye,
Ömür su gibi akıp gitmiştir.
Bilemedim o çığı, o ok,

Hangi menzile yetmiştir.

Keyingi she'riy parcha A.Oripovning "Kecha" she'ridan olingan:

Sekin g'udurlaydi shunda allakim:

– **Nahotki** menga hech rahming kelmaydi...

Yomg'ir ham savalar meni beomon,

Shamol ham holimdan kulgani-kulgan.

Boshpana ber menga, men-vahimaman,-

Botirlar qalbidan quvg'indi bo'lgan.

Yavaşça duyulur o an bir ses:

-**Yazık ki** bana hiç acımazsın.

Yağmur kamçılar beni, elinde oyuncağım,

Rüzgar bile oldu halime gülen.

İçinde sığınacak bir yer ver bana, ben ki vehimim!

Kahramanların yüreğinden sürülen...

"Nahotki" so'zi so'zlovchining hayrati, taajjubi, ajablanishi mazmunini bildirishga xizmat qiladi. Shoir keltirilgan she'r parchasida "nahotki" so'zini qo'llash orqali unga hech kimning rahmi kelmasligi, hattoki shamolning ham uning ustidan kulishini ta'kidlaydi. Turk tilida esa tarjimon "nahotki" so'zi o'rnida "yazık ki" so'zini ishlatadi. "yazık ki" so'zi so'zlovchining afsuslanishi mazmunini anglatadi va o'zbek tilidagi "afsuki", "taassufki" so'zlariga mos keladi. Demak, bu vaziyatda tarjimon shoirning munosabatini to'g'ri tushunmagan, natijada shoirning ajablanishi, taajjubi, uning afsusiga aylanib qolgan.

"Oxirat" she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qilaylik:

Nimadandir **g'ashdir** ko'ngillar,

Tikanakka **burkanmish** gullar.

Boqqa nogoh adashib kirsang,

G'azab bilan sayrar bulbullar.

Mazkur parchada o'zbek tilidagi "g'ash" turk tilidagi tarjimada "**gamlı**" – g'amli so'zi bilan beriladi. "g'ash" so'zi "1. Noxush, dilgir (kayfiyatlar uchun). 2. Ta'bi xiralik"²⁰ degan ma'noni bildiradi. Bu so'zning mazmuni "g'amli" so'zining ma'nosini bildirmaydi. Shuningdek, tarjimon asl matndagi "burkanmoq" fe'li uchun "dönmek" fe'lini ishlatadi. Burkanmoq fe'li "biron-bir narsani o'rab olmoq, o'rtmoq" ma'nosini bildiradi. "dönmek" fe'li "1. Burilmoq, aylanmoq. 2. O'ramoq" ma'nolariga ega. Agar shoir gullarning tikanga burkanganligi, tikanaklarga o'ranib olganligini tasvirlagan bo'lsa, tarjimada "atirgullarning tikanga aylanganligini" ma'nosi aks etgan. Ya'ni "burkanmoq" va "gul" so'zlarining noto'g'ri tarjima qilinishi natijasida shoir e'tiborga tutgan ma'no turk tilida to'g'ri berilmagan.

Solishtiring:

Nedendir **gamlı** gönüller,

Dikene **dönmüş** güller.

Ansızın şaşırıp da bağa girsen,

Öfkeyle ötüşür bülbüller.

O'zbek tilidagi "olomon" so'zi "o'z-o'zidan, kutilmagan hodatda to'plangan odamlar, xaloyiq"²¹ ma'nolarini bildiradi. Biroq tarjimon turk tilidagi tarjimada nima sababdandir "insan" – inson so'zini qo'llaydi. Natijada shoir nazarda tutgan "olomonning, xalqning qalqishi, ko'pirib toshishi" ma'nosi "insonning qalqib toshishi" shaklida o'girilgan. A.Oripov aytmoqchi bo'lgan g'oya kuchsizlanib, qadsizlanib qolganday tuyuladi. Chunki mashhar zamonida olomonning nima qilishni bilma qalqishi va mashhar zamonida birgina odamning qalqib toshishi o'rtasida yor bilan osoncha farq bor. Olomonning dengizday qalqib toshishi

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том. 441-бет.

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том, 118-бет.

g'aroyib bir manzara kabi ko'rinsa, birgina insonning qalqib toshishi go'yoki isyoni kabi baholash mumkinday ko'rinadi.

Bilib bo'lmas — kimda bor imon,
Olag'ovur mahshardir zamon,
Ne qilarin bilmay hayratda,
Dengiz kabi qalqir **olomon**.

Tarjimada:

Belli olmaz, kim de var iman,
Dehşetli bir mahşerdir zaman.
Ne yapacağını bilemez hayretinden,
Deniz gibi kabarır da **insan**.

A.Oripovning “Dil og'rig'i” she'ridan olingan keyingi misralarga e'tibor qilamiz:

Mushkul ekan bu qadar,
Ezgulikka erishmoq.
Hayot-ku bir chistondir,
Muhabbat ham topishmoq.
 (“Dil og'rig'i”)
Ne kadar müşkülmüş
Huzura ermek
Hayat bir kovalamaca
Sevgi ise bulmaca.

O'zbek tilidagi “ezgulik” so'zi “xayrli, ezgu ish”²² mazmuniga ega. Tarjimada diqqat qilsak, “ezgulik” so'zi uchun “huzur” so'zi ishlatiladi. “Huzur” so'zi “1. Ko'ngil rohatligi, rohatlik. 2. Old, yon, qavat, maqom. 3. Eskicha: bir joyda

²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том. 22-бет.

bo'lmoq. 4. Eskicha: podshoh yashadigan qavat" ma'nolarini bildiradi²³. Demak, bu o'rinda "huzur" so'zini ishlatish o'zini unchalik oqlamagan.

A.Oripovning "Qish kechasi" va "Shoir umri" she'rlaridan olingan quyidagi misralar tarjimasiga diqqat qarataylik:

Taqillaydi eshik nogahon,
Kimsan? –deyman, tugab sabotim,
–Ochgil, deydi, –Men senga mehmon,
Bilmoq bo'lsang – **Tashvishdir** otim.

("Qish kechasi")

Tıkırdıyor kapı ansızın,
Kim o diyorum, tükenip sabrım.
- Aç, diyor ben sana misafirim,
Kimliğimi bilmek istersen, **korkudur** adım.

Daraxtni hamisha o'raydi shamol,
Shoirni **tashvishlar** chulg'ar hamisha.
Sen shoir umrini dema bezavol,
Uning ham har oni tashvishga pesha.

("Shoir umri")

Ağacı sarar hemen her zaman rüzgar,
Şairi ise endişeler kaplar her an,
Sen şair ömrüne deme sönmeyen yıldızlar,
Onundur her anı **endişelerle** dolan.

Shoir yuqorida keltirilgan misralarda "tashvish" so'zini quyidagi ma'nolarda ishlatadi: 1. ko'zlangan ish, maqsad va sh.k. yo'lidagi o'y-fikr, xatti-harakat, bezovtalik, taraddud. 2. Baxtsizlik, judolik va sh.k. tufayli yuz beradigan his-tuyg'u, g'am-alam. 3. Notinchlik, azob-qiynoq beradigan narsa hodisa va shu

²³ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.906.

tufayli yuzaga keladigan holat, kulfat, savdo²⁴. Tarjimon ushbu soʻzning tarjimasi uchun “korku” va “endişe” soʻzlariga murojaat qiladi. Shoir sheʼrining turkcha tarjimasida ishlatilgan “korku”²⁵ – soʻzi quyidagi maʼnolarga ega: 1. Bir tahlika yoki tahlika fikriga nisbatan uygʻongan qaygʻu tuygʻusi. 2. Qaygʻu, gʻam. 3. Yomonlik kelishi ehtimoli, tahlika. 4. Psixologiyada: haqiqiy yoki kutilayotgan tahlika yoki kuchli birga nisbatan uygʻongan, rangning sargʻayishi, ogʻiz qurishi, nafas olishning tezlashishi va boshqa belgilari boʻlgan yoki qorishiq fiziologik oʻzgarishlar bilan namoyon boʻladigan hissiyot. “Endişe” soʻzi esa quyidagi maʼnolarga ega: 1.fikr, mushohada. 2. Qaygʻu, gʻam. 3. Shubha. 4. Qoʻrquv²⁶. Demak, bu oʻrinda ham tarjimon tanlagan soʻzlar shoir sheʼridagi maʼnoni tshla ochib bergan deb boʻlmaydi.

2.2. A.Oripov sheʼrlarida iboralar tarjimasi

Frazeologik birliklar, maqol, matal, iboralar yozma va ogʻzaki nutqqa obrazlilik va hissiyot baxsh etib, unda aytilayotgan voqea, hodisa, narsalarga bamisoli jon kiritadi. Ular tufayli badiiy asar til shirali, boy, kuchli va chiroyli boʻladi, taʼsirchanligi oshadi. Frazeologik iboralarni tarjimada toʻgʻri, oʻz maʼnosida berish juda murakkab ishdir. Badiiy tarjima tufayli tilning frazeologiyasi boyiydi.

Maʼlumki, badiiy tarjima jarayoni muayyan qiyinchiliklar bilan kechadi. Shu oʻrinda asosiy eʼtibor tilda mavjud turgʻun birikmalar – iboralarga ham qaratiladi. Ushbu til birliklarini tarjimada berish murakkab vazifalaridan biri sanaladi. Buning ustiga, ularda aks etuvchi milliylikni chet tilida ifodalash undan-da koʻp mashaqqat talab etadi. A.Oripovning “Meni olib keting” sheʼridagi ayrim kamchiliklarga toʻxtalib oʻtaylik:

Maʼlumki, oʻzbek tilida “issiq jon” iborasi bor boʻlib, bu ibora insonning umri qisqaligi, peshonasida nima borligini bilib boʻlmasligi, arziman bir hodisa yoki holat uning oʻlimiga sabab boʻlishi mumkinligi maʼnosini ifoda etadi. Turk tiliga

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том. 20-бет.

²⁵ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.1217.

²⁶ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.636.

bu iborani soʻzma-soʻz tarjima qilsak, “sıcak can” koʻrinishga ega boʻladi. Biroq turk tilida bunday ibora mavjud emas. Shuning uchun tarjimon iboraning mohiyatini toʻgʻri tushungan holda “**aciz can**” – “ojiz jon” birikmasini ishlatadi. Bu birikma turgʻun shaklga ega boʻlmasayam, yaʼni frazeologik birikma boʻlmasayam, “issiq jon” iborasiga toʻgʻri keladi.

“paymonasi toʻlmoq” iborasi oʻzbek tilida “vafot etmoq, umri tugamoq” maʼnosini anglatadi. Turk tilida iborani soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydi. Tarjimon bu vaziyatda “kadehi dolmak” – “qadahi toʻlmoq” birikmasini ishlatadi va soʻzma-soʻz tarjimini amalga oshiradi. Albatta, bunda tarjimon, sheʼri unurni saqlab qolishga erishadi.

Qiyoslang:

Issiq jon deydilar, jon boʻlsa boʻlar,
Payt kelsa chechak ham sargʻayar, solar.
Kim bilgay **paymonang qay yerda toʻlar**,
Meni olib keting oʻz diyoringa.

Aciz can demişler, ne olursa olsun,
Zamani gelince çiçekte sararıp solar.
Kim bilir **kadehin nerede dolar**,
Alıp götürün öz diyarıma.

Yana shu sheʼrga murojlat qilamiz:
Talpingan diyoring, u — Oʻzbekiston,
Sehrini aytishga bormi hech imkon,
Yoʻq, oʻzga yurtlarda **berolmasman jon**,
Meni olib keting oʻz diyoringa.

Koşup varacağım diyarım, o Özbekistan,
Cazibeni anlatmaya var mı hiç imkan,

Hayır hayır başka diyarlara **gidemez bu can**,
Beni alıp götürün öz diyarıma.

Keltirilgan banddagi “jon bermoq” iborasi “o’lmoq, vafot etmoq” ma’nosiga ega. Lekin tarjimon “can gitmek” iborasini noto’g’ri qo’llaydi. Chunki turk tilida bunday ibora yo’q. “jon bermoq” ma’nosida esa “can vermek”, “can çıkmak” iboralaridan birini ishlatilsa maqsadga muvofiq bo’lardi.

“Maktub” she’ridan olingan keyingi to’rtlik va uning tarjimasiga e’tibor qaratamiz:

Lekin qutulmoq yo’q hijron dastidan,
Faqat qalbimizda bardosh va sabot.
Dunyoda jamiki hislar **ustidan**
Qahqaha uradi qadim bu hayot.

Lâkin kurtulmak yok hicranın elinden,
Fakat kalbimizde sabır ve sebat.
Dünyadaki bütün hislerin **içinden**,
Kahkaha yükselir, ezelden böyledir bu hayat.

Keltirilgan to’rtlikka e’tibor qaratsak, ko’ramizki, “ustidan” so’zi o’rnida tarjimada “**içinden**” – ichidan so’zini ishlatadi. Natijada A.Oripovning she’rida qo’llangan “ustidan qahqaha urmoq” (aslida “ustida kulmoq”) iborasi ma’nosi noto’g’ri tarjima qilinadi. Bilamizki, “ustidan kulmoq” iborasi “birovning biron-bir ishi, qilig’i, ko’rinishi, xatti-harakatini to’g’ri qabul qilmaslik, mazax qilmoq, kulgiga olmoq” ma’nolarini bildiradi. Turk tilida o’zbek tilidagi bu iboraning aynan shunday ekvivalenti bo’lmaganligi sababli tarjimon “içinden kahkaha yükselmek” – ichidan, orasidan qahqaha ko’tarilmoq deb tarjima qiladi. Natijada shoir nazarda tutgan ma’no to’g’ri berilmaydi.

O’zbek tilidagi “rozi bo’lmoq”, “norozi bo’lmoq” iboralari keng tarqalgan. Bu iboralarining ma’nosi nihoyatda chuqur. Turk tilida bu so’zning fonetik

muqobili mavjud bo'lsa-da, o'zbek tilidagi ma'nosiga to'la mos kelmadi. Razi²⁷ – uyg'un bo'lgan, qabul qilingan, o'zlashtirilgan, istalgan degan ma'nolarni bildiradi. Ya'ni mazmunan bu so'z o'zbek tilidagi “rozi” so'ziga mos keladi, ammo turk tilidagi bu so'z o'zbek tilidagi chuqur ma'noga ega emas.

Tarjimonning mahorati shunda ko'rinadiki, u o'zbek tilidagi ushbu iboraning mazmunini to'g'ri anglagan holda, **memnun olmak – mamnun bo'lmoq, şikayetçi olmak – shikoyatchi bo'lmoq** iboralarini tanlab to'g'ri yo'l tutadi. Chunki bunday tarjimada o'zbek tilidagi “rozi bo'lmoq” iborasining ma'nosi to'la aks etadi.

Solishtiramiz:

Dunyodan **roziman** dema, hech qachon,
Desang ham, so'ylagil sahroga, toqqa.
Chunki seni tinglab, kimdir o'sha on,
Nega **rozisan**, deb tutgay so'roqqa .

Dunyodan **norizo bo'lsang** ham agar,
So'z dema, bardosh qil azob, firoqqa.
Chunki seni tinglab, kimlardir battar,
Nega, deb albatta tutgay so'roqqa.

(“Dunyoning ishlari”)

Bu dunyadan **memnunum** dema hiç bir zaman,
Desen bile söyle sahralara dağlara,
Çünkü seni duyan biri o an,
Niçin **memnunsun** diye tutar sorulara.

Dunyadan **şikayetçi olsan** da eğer,
Bir şey deme, sabret acılara, ayrılıklara,
Çünkü seni dünleyen biri daha beter,
Neden deyip de elbette tutar sorulara.

²⁷ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.1646.

“ko’nikmoq” so’zi biron-bir vaziyatga moslashmoq, kelishib ishlamoq yoki yashamoq degan ma’nolarni bildiradi. Bu so’z uchun tarjimon “**boyun eǵmek**” – “bo’yin egmoq” iborasini mohirona qo’llaydi, natijada A.Oripov nazarda tutgan ma’no to’laligicha turk tilidagi tarjimada aks etgan:

Inson-chi, to yovuz va g’addor,
Bir-birin tinimsiz tortadi chohga.
Bundayin qismatga **ko’nikmoq** dushvor,
Netay, hasratimni deyman Allohga.

(“Hasrat”)

İnsan ise henüz hıçın ve gaddar,
Birbirini aralıksız çeker çukura.
Böyle bir kismete **boyun eǵmekte** var,
Ne yapayım, söylerim ben de hasretimi Allah’a.

A.Oripov quyidagi to’rtligida dunyo yaralgandan beri avval yer, keyin o’simlik va hayvonot olami paydo bo’lganini, inson zoti esa aqlli mavjudot bo’lganligi sababli, dunyoning yaratilishi haqidagi gipotezalarni yaratgani uchun ham oldinga o’ringa chiqqanligini bayon etadi. Bu o’rinda ishlatilgan “pesh qilmoq” iborasi “ko’rsatmoq, ko’z-ko’z qilmoq” ma’nosini bildiradi:

Paydo bo’lganida zamin va zamon,
Avval yaralgandir daraxt va hayvon.
Bul ikki soddani aldamoq uchun,
Aqlini **pesh qilib** chiqqan so’ng Inson.

Turk tilida o’zbek tilidagi “pesh qilmoq” iborasining ekvivalenti yo’qligi sababli “birining yoki bir narsaning yaxshiligini, ustunligini so’zlab, qadrini yuksaltirmoq, madh etmoq, maqtamoq”²⁸ mazmunini bildiradigan “**övmek**” fe’lini ishlatiladi va natijada tarjimada shoir nazarda tutgan mazmuni to’laligicha aks etadi:

Peyda olduğunda zemin ve zaman,
Öncelikle yaratılmıştır ağaç ile hayvan.

²⁸ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.1553.

Bu iki safı aldatmak için,
Aklını **övüp** öne çıktı insan.

III BOB. A.ORIPOV ShE'RLARI TURKChA TARJIMALARIDA TARJIMON MUAMMOLARI MASALASI

3.1. “Aldoqchi so’zlar” tarjimasi masalasi

Qardosh tillardan tarjima qilish tarjimondan alohida mas’uliyat, hushyorlik talab qiladi. Odatda, bir oilaga mansub tillardan tarjima qilish boshqa oilaga mansub tillardan tarjima qilishga nisbatan osonday ko’rinsa-da, aslida xiyla murakkab vazifadir. Oiladosh-qardosh tillarda shunday so’zlar borki, ular shaklan o’xshash bo’lsa-da, grammatik, iboraviy-stilistik komponentlarga, mazmuniga ko’ra boshqa-boshqa ma’nolarni anglatadi. «Yaqin tillarda, xususan, turkiy tillarda so’zlar shaklan o’xshash bo’lsa-da, ma’no ottenkasi, qo’llanish o’rni va vazifasiga ko’ra farq qiladi»²⁹. Z. Isomiddinovning ta’kidlashicha, «Yaqin tillardan tarjima qilishda «soxta ekvivalentlar»ning tarjimonga pand berish hollari aslida mutarjimning original tilini yetarli darajada bilmasligi tufayli kelib chiqadi»³⁰.

Bunday o’xshash so’zlarni o’zbek olimlari «aldoqchi so’zlar» termini bilan atashadi. Turk olimlari bo’lsa ularni «tuzoq kalimalar» deyishadi. Yu. Berdaqning Turkcha-o’zbekcha «Aldoqchi so’zlar lug’ati»da turk va o’zbek tillaridagi ana shunday kalimalar izohlangan³¹. Bu lug’atda 3000 ga yaqin «aldoqchi so’z» keltirilgan bo’lib, o’zbek va turk tillari shaklan o’xshash, biroq mazmunan farqli so’zlarga boy ekanidan dalolat beradi.

Tarjimon tomonidan so’zlarning fonetik ekvivalentligi sababli bir qator xatolarga yo’l qo’yiladi. Masalan, tuz so’zi “1.Molekulalari tarkibiga kislota qoldig’i bilan bog’langan metall atomlari kirgan murakkab moddalar 2. Shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi (natriy xlorid), 3. Tekis yer, keng tekislik 4. foydalanilmay yotgan yer, qo’riq 5. kart. O’yin turiga qarab eng katta yoki bir ochko (bir xol) qiymatga ega bo’ladigan karta) 6. (egalik affiksi bilan) Biror

²⁹ М. Каримов. Туркий тиллардан биридан иккинчисига таржима қилишнинг айрим масалалари» Бадий таржима дўстлик қуроли. Т., - Ўқитувчи, 16-бет

³⁰ Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс. // Таржима санъати. 5-китоб. – Т., 1980. 159-бет.

³¹ Ю. Бердақ «Туркча-ўзбекча «алдоқчи сўзлар» луғати. Т., - Ворис нашриёти, 2009.

narsaning eng sarasi, eng yuqori darajasi, eng maqomlisi”³² ma’nolariga ega. Turk tilidagi “toz” so’zi “1.chang, nimaningdir qismi. 2. Poroshok. 3. Zarra. 4. Argo so’z sifatida: nasha³³” ma’nolariga ega. Demak, o’zbek tilidagi “tuz” va turk tilidagi “toz” so’zlari faqat fonetik ekvivalent bo’lib, mazmunan umuman farqlanadi. Tarjimonning xatosi tufayli “ummonlarning tuzi” tushunchasi “ummonlarning changi”ga aylanib qolgan. Shuningdek, o’zbek tilidagi “zaqqum” so’zi “zahar” mazmunini bildiradi. Turk tilidagi “**zakkum**” so’zining ma’nosi ikkitadir: 1. Oleandr daraxti. 2. Diniy atama sifatida: jahannamda o’suvchi daraxt³⁴. Demak, bu o’rinda ham so’zlarning fonetik muqobilligi tarjimonni chalg’itgan, natijada ma’no noto’g’ri tarjima qilingan.

Solishtiring:

Qonga to’lmish Mirrixning ko’zi,
Ummonlarning sachraydi **tuzi**.
Allaqachon bol tommas tildan,
Shoirlarning **zaqqumdir** so’zi.

(“Oxirat”)

Kanla dolmus, Jübiterin gözü,
Ummanların savrulur **tozu**.
Ne zamandır bal damlamaz dilinden,
Şairlerin **zakkumdur** sözü.
Keyingi to’rtlikka to’xtalamiz:
Sokin o’tgan bir damni,
Eslolmayman, yo Rabbim.
Taqdir qo’lida yoydek
Egilib borar **qaddim**.

(“Dil og’rig’i”)

Huzurlu geçen bir demi,
Hatırlamıyorum YA Rabbim.

³² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-том, 179 бетлар

³³ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.898.

³⁴ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S..940.

Takdirin elinde yay gibi

Eğilip durur **kaddim**.

Keltirilgan to'rtlikka tarjimon ikkita xatoga yo'l qo'yadi. Birinchidan, o'zbek tilidagi "taqdir" so'zi "1. Oldindan belgilab qo'yilgan, peshonaga itilgan ko'rshulik, yozmish, qismat. 2. Kelgusi hayot, kelajak, istiqbol. 3. Kelgusi natija, uning nima bo'lishi, qanday bo'lishi"³⁵ ma'noni bildiradi, bu so'zning turk tilidagi birinchi ekvivalenti "kader" so'zidir. Tarjimon qo'llagan "takdir" so'z esa quyidagi ma'nolarga ega: 1. Yoqtirish, yoqtirishini bildirish, qadrlash. 2. Biror narsaning qadrini, ahamiyatini, kerakliligini anglash. 3. Maqtov. 4. Baho berish. 5. Ommaviy axborot vositalarida kuzatish nisbati. 6. Ko'rsatish olmoshlari bilan ishlatilganida, "shunday vaziyatda, shunday holatda" kabi ma'nolarni bildiradi. 7. Dinshunoslik sohasida: tangrining uyg'un ko'rgani, tangrining istagi³⁶. Arab tilidan olingan bu so'zning bosh ma'nosi ham "hisoblash chiqarish, qiymat, baholash"dir. Ikkinchidan, **qad** so'zi "qomat, qaddi qomat" ma'nolarini bildiradi. Tarjimon turk tilidagi tarjimada "**kad**" so'zini ishlatadi, biroq turk tilidagi lug'atlarda ko'rdikki, turk tilida bunday so'z yo'q. Demak, bu o'rinda tarjimon so'zning tarjimasini keltirish o'rniga fonetik ekvivalent so'zni berish bilan cheklangan.

A.Oripov she'rining keyingi to'rtligiga e'tibor qilamiz:

Yaxshi bilan yomonni

Yetolmayman farqiga.

Faqat yo'l **izlab o'tdim**,

Muhabbatning **arkiga**.

(“Dil og’rig’i”)

İyiyle kötünün

Varanayıp farkına

Yol diye **düştüm**

Muhabberin **arkına**.

³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том. 35-бет.

³⁶ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.1888.

O'zbek tilidagi “ark³⁷” so'zi “f. ichki qal'a, poytaxtdagi qasr, xon yoki amirning atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on saroyi” ma'nolarini anglatadi. Turk tilidagi bu so'zning fonetik ekvivalenti “**ark**” “ichidan suv oqizish uchun tuproqni qazib ochilgan nov, suv yo'li, ariq, kanal” ma'nosiga ega³⁸. Demak, bu o'rinda tarjimon jiddiy xatoga yo'l qo'yadi. Xuddi shu bandda shoir “muhabbatning arkiga yo'l izlab o'tganligini yozadi”. Tarjimada noto'g'ri so'z tanlashi oqibatida “muhabbatning arig'iga yo'l deb o'ylab tushib qoldim” degan ma'no anglashiladi.

“to'sh” so'zi “ko'krak qismi” degan ma'noni bildiradi, turk tilida bu ma'noda “göğüs” so'zini qo'llash mumkin. Lekin tarjimon nima sababdandir turk tilida mavjud bo'lmagan “**döş**” so'zini ishlatadi, bunda u o'zbek tilidagi “to'sh” so'zining fonetik ekvivalentini qo'llaydi, xolos.

Solishtiramiz:

Shamol uvillaydi,

Qor, bo'ron toshib,

Tepalik **to'shiga** uradi.

U yerda tuproqqa bag'rini bosib,

Tanho bir sag'ana ma'yus turadi.

(“Onamni eslab”)

Rüzgar uğulduyordu,

Kar, tipi, boran,

Tepenin tam **döşüne** vurup kendini

Bstı toprağa bağrını.

Keyingi misolga e'tibor qilamiz. O'zbek tilidagi “bo'zlamok” fe'li “yig'lamoq, yig'lab-siqtamok, faryod solib yig'lamoq” degan ma'noni bildiradi. Biroq tarjimon tovushlarning uyg'unligiga aldanib, “bo'zlamok” fe'li “**buzlu**” –

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. 98-бет.

³⁸ Türkçe Sözlük. Ankara, 2005. S.119.

“muzli” shaklida o’giriladi. Natijada onasiga ro’para chiqish maqsadida yig’lab yo’lga ravona bo’lganligi ma’nosi turk tilidagi tarjimada tarjimon shoirning onasini izlab muzlagan yo’larda, sovuq ayozda yo’lga chiqqanligini ifodalagan. Ya’ni tarjimonning xatosi sababli, she’rda ortiqcha bir detal – “muz” paydo bo’lgan.

Qiyoslang:

Qoshiga chiqay deb **bo’zlab** yo’l yurdim,

Ko’kragimni tildi izg’irin, tikan.

...Netay, onajonim, qancha odam ko’rdim,

Sendan yaqin kishim yo’q ekan.

(“Onamni eslab”)

Yürüdüm **buzlu** yollarda, yetişiym diye sana,

Dağlayıp da göğsümü soğuk ayaz,

Deldi bağrımı serseri dikenler

... ne yapayım anneciğim, pek sevgili gördüm de,

Senden sevgilisi yokmuş meğer.

Keyingi to’rtlikda A.Oripov asrni, davrni kalendar varaqlariga o’xshatadi. Lekin bunda asrning har bir davri, kuni, oyi yoki haftasini ketma-ketlikka rioya qilingan kalendar emas, balki asosidan uzib olingan, betartib sochilib yotgan kalendar varaqlariga tenglashtiradi. Chunki, haqiqatdan ham, inson xotirasida o’tgan har bir kuni, har bir boshidan o’tkazgan voqea, hodisa ketma-ketlikda saqlanmaydi. Faqat eng yorqin va eng g’amgin damlarinigina eslaydi. Shoir shuni e’tiborga olib “to’zg’oq”, ya’ni yoilib, sochilib yotgan kalendar varaqlarini tilga oladi.

Iqbol deb behuda chekasan yohu,

Ohing bu - folbinning daraklaridir.

Asrim, asrim deysan, asring nima u?

U - **to’zg’oq** kalendar varaqlaridir.

Endi turk tilidag tarjimaga e’tibor qaratamiz:

İkbal diye beyhude çekersin ya hû,
Ahın bu, falcının haberleridir.
Asrım, asrım diyorsun, asrın nedir o?
O, **tozlu** takvim yapraklarıdır.

Tarjimon bu o'rinda nima sababdir "tozlu" – "changli, changga belangan" so'zini ishlatadi. Albatta, yoyilib, sochilib ketgan varaqlar – eski xotiralar "changga belangan" bo'lishi mumkin. Lekin bu so'z shoir nazarda tutgan "to'zg'oq" so'zining ma'nosini ifoda etmagan.

"ado", "ado bo'lmoq" so'zlari poetik tilda faol ishlatiluvchi so'zlardan biri bo'lib, oshiqning yori dardida, ko'yida azob cheka-cheka tamom bo'lganligi, holi qolmaganligi, o'lar holatda ekanligini bildiradi. Masalan:

Biz tomonga, ey nigoro, ne balo bir kelmading,
Ko'zlarimga bo'ldi dunyo tim qora, bir kelmading.
Menga-ku lutf alamabsan, o'zgalar ham noumid,
Ahli ag'yor ham bo'libdir, bas, **ado**, bir kelmading.
(“Noma”)

Bizim taraflara, ey dilber, neden bir gelmedin,
Gözlerimde oldu da tüm dünya kara, bir gelmedin.
Bana da bir lütuf eylemedin, başkalarında da yok ümit,
Ehli ağyar da oldu telef, yeter bir **eda**, bir gelmedin.

Bu so'zning turkcha ekvivalenti "**eda**" so'zi "1.Xatti-harakat, o'zini tutish. 2. Noz, ishva. 3. Tushuntirish usuli." degan ma'nolarni ifodalaydi³⁹. Demak, bu o'rinda tarjimon so'zlarning fonetik jihatdan muqobilligi sababli yanglishgan.

3.2. A.Oripov she'rlari tarjimasida qofiya va vazn

A.Oripov she'rlarining turkcha va o'zbekcha nusxalarini tanishtirish jarayonida shunga amin bo'ldikki, shoirning she'rlarini tarjima qilishda she'rning

³⁹ Türkçe Sözlük. 2 Cilt. 430-431-sayfa

asosiy unsurlaridan bo'lgan vazn va qofiya masalasiga ham yetarlicha amal qilinmagan.

Hozirgi o'zbek she'riyatining yetakchi she'r tizimi - barmoq, yuqorida aytilganidek, misralardagi bo'g'inlar sonining tengligiga asoslanadi. A.Fitrat barmoq vaznini milliy vazn deb atarkan, shunday yozadi: "Milliy vaznimizda asos so'z bo'g'imlarining sanog'idir. Bir baytning birinchi misrasi necha bo'g'im esa, ikkinchi misrasi ham shuncha bo'g'im bo'ladi. Bo'g'implarning harf, cho'zg'i sonlariga esa ahamiyat berilmaydir",- deb yozadi⁴⁰. Fitratning barmoqni "milliy vazn" deb atashiga asos shuki, barmoq tizimi o'zbek tili tabiatiga, uning tovush xususiyatlariga muvofiq keladi. Shu bois ham o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asosan barmoqda yaratilgan. Keyinroq, arab istilosidan keyin yozma adabiyotda aruz qaror topgan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodining asosiy she'r tizimi barmoq bo'lib qolaverdi. Bu, birinchi galda, barmoqning o'zbek tili xususiyatlariga to'la muvofiqligi bilan izohlanadi. XX asr boshlaridan, jadid shoirlar Cho'lpon, Fitrat, Hamzalarning ijodi bilan she'riyatimizda yana barmoqning yetakchilik davri boshlandi.

Barmoq she'r tizimida mutaxassislar 4 bo'g'inlidan tortib 16 bo'g'inligacha bo'lgan vaznlar tarqalganini ta'kidlaydilar. Vazn har bir konkret she'rda yuzaga chiqadigan hodisa sanalib, uni metr(o'lchov) deb ham nomlanadi. Barmoqdagi o'lchov belgilanganda avvalo bo'g'inlar soni, keyin turoqlanish tartibi ko'rsatiladi.

Masalan:

Yuzlaringni / mayliga yashir, 9 (4 + 5)

Kerak emas / nozlar, imolar. 9 (4 + 5)

Go'zallikning / qoshida axir, 9 (4 + 5)

Cho'kka tushgan / hatto xudolar. 9 (4 + 5)

She'riy nutq muayyan bir o'lchov(vazn) asosidagi ritmga ega bo'lgan, o'zining musiqiy jarangi, hissiy to'yintirilganligi bilan farqlanuvchi nutqdir.

⁴⁰ Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т.,1995

She'riy nutqdagi o'ziga hos intonatsiya, musiqiylik ritmik bo'laklar va ritmik vositalar, o'ziga xos fonetik tashkillanish, turli sintaktik usullar yordamida vujudga keladi. She'riy yo'lda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o'quvchiga "yuqtirilishi"da uning ritmik-intonasion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, she'rning ritmik-intonasion xususiyatlari uning mazmuni bilan belgilanadi, mazmun bilan uyg'unlik kasb etadi. She'riy nutqning o'ziga xosligini, o'ziga xos tashkillanishini tasavvur qilish uchun, avvalo, uning ritmik-intonasion xususiyatlarini belgilovchi unsurlar, vositalar haqida tushunchaga ega bo'lish zarur⁴¹.

She'riy nutqning ritmik qurilishini yaxshiroq tasavvur qilish uchun ritmik bo'lak va ritmik vositalarni belgilab olishimiz zarur. Ritmik bo'laklar sifatida bo'g'in (hijo), turoq(rukni), misra va bandni olamiz.

Bo'g'in (hijo) bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar guruhi bo'lib, u barcha she'r tizimlarida eng kichik ritmik bo'lak sanaladi. O'zbek she'riyatida qo'llaniluvchi barmoq tizimi uchun bo'g'inning sifati (qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziqligi, ochiq yoki yopiqqligi, urg'uli yoki urg'usizligi) ahamiyatsiz bo'lsa, aruz tizimida uning qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq navlari ajratiladi.

Turoq bilan ruknning ritmik bo'lak sifatidagi ahamiyati va darajasi teng keladi. Barmoq tizimiga xos bo'lmish turoq bo'g'inlarning ma'lum miqdorda guruhlanishidan hosil bo'lsa, aruz tizimiga xos rukn qisqa va cho'ziq hijolarning ma'lum tartibda guruhlanishidan hosil bo'ladi. Bu o'rinda bitta narsani unutmaslik kerakki, turoq so'zni hech vaqt bo'lmagani holda, rukn so'zning bir qisminigina o'ziga olishi, ya'ni uni bo'lib yuborishi mumkin⁴².

Ma'lumki, A.Oripov she'rlari barmoq vaznida yozilgan. Bu, shoir she'rlarining barcha bandlari va barcha satrlari teng miqdordagi bo'g'in (hijolar)ga asoslanganini bildiradi. Masalan, shoirning, "Ayol" nomli she'rining turkcha va o'zbekcha nusxasiga e'tibor qilamiz. Mazkur she'r 11 bo'g'inga asoslangan. Bu uning birinchi ikki bandida ko'rinib turibdi:

⁴¹ Д.Куронов. Адабиётшуносликка кириш. Т. 2004.104-бет.

⁴² Ўша китоб. 107-бет.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jandan,
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Endi ushbu she'rning turk tilidagi tarjimasiga e'tibor qilamiz:

1-bandda: 1-qator 17 bo'g'in, 2-qator 15 bo'g'in, 3-qator 18 bo'g'in, 4-qator 14 bo'g'in; 2-bandda 1-qator 10 bo'g'in, 2-qator 12 bo'g'in, 3-qator 11, 4-qator 13 bo'g'indan tashkil topgan:

Yiğitler mektuplarını yazdıklarında kanlarından,
Gelinler firaklarından çektiklerinde YA HU,
Onunda koruyucusu, erkeği, geri dönmedi cenkten,
Ondokuz yaşında dul kaldı, gözleri sulu.

Sevgiden yetim, ömürden yarım,
Kuruyan gözlerinde yalnız bir beşik,
Ebedi firakı, heyhat, dostlarım,
Ebedi visal sandı zavallı gelincik.

Ushbu vaziyatni shoir she'rlarining deyarli barcha she'rlarida kuzatish mumkin. Albatta biz A.Oripov she'ri 11 hijodan iborat bo'lsa, turkcha tarjimasida ham 11 ta hijodan tashkil topishi kerak, demoqchi emasmiz. Til xususiyatidan kelib chiqib, she'rni 11, 12, 13 yoki undan ortiq hijodan iborat qilib tarjima qilish mumkin.

Lekin har bir bandda, har bir qatordagi bo'g'inlarning soni bir xil bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz. Chunki barmoq vazni talabiga ko'ra, she'ning barcha qatorlari, yoki she'rlarning juft yoki toq qatorlari teng hijodan tuzilishi kerak. Afsuski, A.Oripov she'rlarida bunga amal qilingan holat deyarli uchramaydi.

Misra yakunida keluvchi qofiyalar — so'z, qo'shimcha, ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi — ritmik jihatdan misrani ta'kidlab ko'rsatishga, she'ning ohangdorligi, musiqiyliqi, ta'sirdorligini oshirishga xizmat qiladi. She'rni o'qish davomida (bu narsa ayniqsa yoddan o'qilganda yoki she'r tinglanganda yaqqol seziladi) qofiya misraning tugaganidan darak beradi, pauza bajarayotgan ajratish funksiyasini ta'kidlaydi.

She'riyatda qofiyaning bir qator ko'rinishlari (to'liq va to'liqsiz qofiya; unlilar ohangdoshligigagina asoslangan assonans va undosh tovushlar ohangdoshligigagina asoslangan dissonans qofiyalar; rus she'riyatida ochiq yoki yopiq bo'g'in bilan tugashiga qarab ochiq - "jenskaya rifma", yopiq - "mujskaya rifma" va b.) mavjud. Jumladan, hozirgi o'zbek she'riyatida qofiyadagi tovushlarning qay darajada mosligi jihatidan och (to'liqsiz) va to'q (to'liq) qofiyalar ajratiladi⁴³.

Qofiyalanish tartibi deganda banddagi misrlarning o'zaro qofiyalanish sxemasi nazarda tutiladi. Banddagi qofiyalanish tartibi turlicha bo'lib, bu tartib bandning ritmik-intonasion butunlikka birikishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan, o'qish jarayonida qofiya misraning tugaganligini ta'kidlaganidek, qofiyalanish tartibi bandning shakllanib bo'lganligi, tugaganini ta'kidlaydi. Masalan, to'rt misrali a - b - a - b tarzida qofiyalangan she'r o'qilayotgan bo'lsa, o'quvchi keyingi bandlarda ham shu xil tartibni kutadi, tartib nihoyalanganida banddagi tugallanganlikni his qiladi. Ya'ni, qofiyalanish tartibi, bir tarafdin, she'r ritmining his qilinishiga, ikkinchi tarafdin, mazmun va ritmning uyg'unlashuviga, o'quvchi tasavvurida yaxlit birlik hosil qilishiga yordam beruvchi vosita ekan.

⁴³ Ўша китоб. 108-бет.

A.Oripov she'rlarining o'zbek va turk tillaridagi variantlarini solishtirish jarayonida qofiya masalasi alohida o'rin tutadi. Shoirning "Noma'lum odam" she'ri parchasidagi qofiyalarini ko'rib chiqaylik:

U na shoir edi va u na mashhur zot,
Lekin dunyo bilan bir edi dardi.
U ham boshqalardek kechirib hayot,
Shoshib ishga borib, sekin qaytardi.
Anglardi dunyoni u ham ko'p teran,
Ma'yus boqar edi botguvchi kunga.
Ba'zida yuragi yongani bilan
Parvo qilmas edi hech qachon bunga.
U qabr ustida so'zlamadi nutq,
Tabrik ham aytmadi to'ylarda xandon,
O'lim bu – nishonga borib tekkan o'q,
Tug'ilish – shiddatla tortilgan kamon.

O, ne şair ne de meşhur zat,
Fakat dünyayla birdi derdi.
O da başkaları gibi geçirip hayat,
Aceleyle işine gider, yavaş yavaş dönerdi.
Kendine göre yorumlardı o da dünyayı,
Mahsun mahsun bakardı batan güne.
Bazen yüreği yanardı da,
Umursamazdı hiç bir zaman buna.
O kabir üstünde söylemedi hiç mersiye,
Nutuk da atmadı düğün dernekte göğüs kabartıp.
Ölüm bu; hedefine varan kurşun,
Doğuş; şiddetle çekilen keman.
Qiyoslang:

Zot – hayot	Zat – hayat
-------------	-------------

Dardi – qaytardi	Derdi – dönerdi
Teran – bilan	Dünyayı – yanardı da
Kunga – bunga	Güne– buna
Nutq – o’q	Mersiye – kurşun
Xandon – kamon	Kabartıp – keman

Ko’ramizki, tarjimon faqat ayrim satrlarning qofiyasini keltirib tarjima qilgan(zat – hayat, derdi – dönerdi), biroq ayrim o’rinlarida qofiya ishlatmagan. O’zi qonun-qoidagi binoan tarjima qilinayotgan she’rda ham so’zlar balki aynan bo’lmasligi mumkin, shunga qaramay, ularga mazmunan muqobil bo’lgan, o’zaro qofiya bo’lgan so’zlarni ishlatish kerak edi. Masalan, güne– buna so’zlari to’la bo’lmagan qofiya bo’lsa, mersiye – kurşun, kabartıp – keman so’zlari esa o’zaro umuman qofiya emas. Bu tarjimonning kamchiligidir.

Quyida shoirning yana bir she’riga “Yillar armoni”dan olingan parchaga e’tibor qilaylik:

Inson o’z umrini o’ylasa ko’p vaqt.

Qiynaydi o’zidan o’tgan qusurlar.

Kingadir aytilmay qolgan bir rahmat.

Kimdandir so’ralmay qolgan uzrlar.

Mukammal ko’rmoqchi bo’ldik dunyoni,

Yetuk bo’lolmadik o’zimiz biroq.

O, yillar armoni, yillar armoni,

Armon ko’rmadim men sizdan buyukroq

Turkcha tarjimasi:

Insan tüm yaşamını bir düşünse uzun uzun,

İçi vicdan azaplarıyla dolar, başından geçen pişmanlıklar

Bazı zaman birilerine söylenmeyen şükran,

Bazen de kimilerinden esirgenen özürler.

Eksiksiz tasavvur edelim dedik dünyayı,

Ilk önce, kendimiz olamadık layık.

O ki yılların ukdesi, yılların ukdesi,

Görmedim sizden büyük gerçekleştirmeyen arzu.

Keltirilgan misralardagi qofiyalarning o'zbekcha va turkcha variantlarini solishtirib ko'raylik:

Vaqt – rahmat	Uzun uzun– şükran
Qusurlar – uzrlar	Pışmanlıklar – özürler
Dunyoni– armoni	Dünyayı – ukdesi
Buyukroq – biroq	Layık – arzu

Shoirning she'ridan olingan parchada qofiyalarning mahorat bilan tanlanganini ko'ramiz, turk tilidagi tarjimasida esa qofiyalarning to'liq saqlanmaganining guvohi bo'lamiz: dünyayı – ukdesi, layık – arzu.

XULOSA

Tarjima - ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali tarjima asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iboratdir. Original ijodda ham, tarjimada ham badiiy tasvir vositalari va she'rda so'z tanlash muammosi kuchli mahorat talab qiladi. Adib asar yaratayotganda qanday so'z ishlatsam ekan, deb maxsus o'ylab o'tirmaydi. Xayolda paydo bo'lgan fikrni o'sha zahotiyoq aniqroq qilib qog'ozga tushiradi. Tarjimada esa vaziyat o'zgacharoq. Tarjimon asarni boshqa tilda qayta yaratish uchun muallifning fikrini uzoq vaqt pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalashi tashvishida yonadi.

Mashhur o'zbek shoiri A.Oripov she'rlarining asl va turk tilidagi variantlarini solishtirish tarjimonning so'z tanlash mahoratida bir qator yutuqlarga erishganligini ko'rsatadi. Tarjimon shoir nazarda tutgan mazmun va mohiyatni turk tilida qayta gavdalantirish uchun ko'p mehnat qilgani ko'rinib turibdi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, ba'zi o'rinlarda ekvivalent sifatida noto'g'ri so'z tanlanishi natijasida butunlay boshqa ma'nolar ham yuzaga chiqqan.

A.Oripov she'rlarida qo'llangan iboralar tarjimasida quyidagi usullardan foydalanilgan:

- 1.Iboralarning turk tilidagi ma'no jihatdan muqobilini berish.
2. Iboralar uchun turk tilida mos keluvchi so'zni ishlatish.
- 3.Asl matndagi so'z uchun turkcha iborani ishlatish.

Bu masalada aytish kerakki, tarjimonlarning asosan muvaffaqiyatli ishlaganliklari kuzatiladi.

Tarjima jarayonida "aldoqchi so'zlar" yoki "lojnie druzya perevodchika" deb ataluvchi so'zlarning fonetik ekvivalentligi sababli tarjimon tomonidan bir qator xatolarga yo'l qo'yiladi. O'zbek va turk tillarida farqli ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar tarjimaning noto'g'ri chiqishiga sabab bo'lgan. Buning sababi shundaki, arab va fors tillaridan o'zbek va turk tillariga o'zlashgan so'zlar bir-biridan farqlanuvchi

ma'nolarni kasb etgan. Masalan, "taqdir" so'zi arab tilida "qiymat, hisoblash, baholash" ma'nolarini bildirsa, turk tilida ham xuddi shu ma'noda ishlatiladi, o'zbek tilida esa bu so'z "qismat, yozmish, kelajak, istiqbol" kabi ma'nolarga ega.

A.Oripov she'rlarining turkcha va o'zbekcha nusxalarini tanishtirish jarayonida shunga amin bo'ldikki, shoirning she'rlarini tarjima qilishda she'rning asosiy unsurlaridan bo'lgan vazn va qofiya masalasiga ham yetarlicha amal qilinmagan.

Hozirgi o'zbek she'riyatining yetakchi she'r tizimi - barmoq, yuqorida aytilganidek, misralardagi bo'g'inlar sonining tengligiga asoslanadi. A.Oripov she'rlari ham asosan barmoq vaznida yozilgan. Bu, shoir she'rlarining barcha bandlari va barcha satrlari teng miqdordagi bo'g'in (hijolar)ga asoslanganini bildiradi. Afsuski, A.Oripov she'rlari tarjimasida barmoq vaznining saqlanishiga ko'pam amal qilinavermagan.

Misra yakunida keluvchi qofiyalar — so'z, qo'shimcha, ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi — ritmik jihatdan misrani ta'kidlab ko'rsatishga, she'rning ohangdorligi, musiqiyliigi, ta'sirdorligini oshirishga xizmat qiladi. A.Oripov she'rlarining o'zbek va turk tillaridagi variantlarini solishtirish jarayonida qofiya masalasi alohida o'rin tutadi. Tahlil natijasida ko'ramizki, tarjimon faqat ayrim satrlarning qofiyasini keltirib tarjima qilgan(zat – hayat, derdi – dönerdi), biroq ayrim o'rinlarida qofiya ishlatmagan. O'zi qonun-qoidagi binoan tarjima qilinayotgan she'rda ham so'zlar balki aynan bo'lmasligi mumkin, shunga qaramay, ularga mazmunan muqobil bo'lgan, o'zaro qofiya bo'lgan so'zlarni ishlatish kerak edi. Masalan, güne– buna so'zlari to'la bo'lmagan qofiya bo'lsa, mersiye – kurşun, kabartıp – keman so'zlari esa o'zaro umuman qofiya emas. Bu tarjimonning kamchiligidir.

Demak, umuman olganda, buyuk o'zbek shoiri A.Oripovning turk tiliga o'girilgan she'rlarini yuqori baholash, o'zbek va turk adabiy aloqalarining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Адабиёт назарияси: 2 томлик..-Т.,1979.
2. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига доир): 3 томлик.- Т.2.- Т.:Фан, 1991.
3. Бадиий таржиманинг актуал масалалари. –Т.: Фан нашриёти, 1977.
4. Л.Б. Бар Анализ художественного произведения.-Т.: Ўқитувчи,1995.
5. Г.О. Винокур О языке художественной литературы.-М.,1991.
6. К. Жўраев Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982.
7. Ш.Иброҳимова Одил Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши. Номзодлик диссертацияси автореферати. Т., 2010.
8. З. Исомиддинов Алдоқчи сўзлар билан баҳс. // Таржима санъати. 5- китоб. – Т., 1980.
9. И.Йўлдошев, Т.Ўзтурк, Ю.Ўзтурк Ўзбек ва турк мақоллари ва иборалари. – Т.: Ўзбек – турк лицейлари, 1998.
10. М.Каримов. Туркий тиллардан биридан иккинчисига таржима қилишнинг айрим масалалари» Бадиий таржима дўстлик қуроли. Т., - Ўқитувчи, 1990.
- 11.Н.Комилов, Ғ.Саломов. Таржимон маҳорати. – Т.: Фан, 1979 .
- 12.Литературный энциклопедический словарь.-М.,1987.
- 13.А.Орипов “Хур ўлкам” (Hür ülkem), Истанбул, 1999.
- 14.Ш.Раҳматуллаев Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан нашриёти, 1966.
- 15.Ғ.Саломов Адабий анъана ва бадиий таржима. – Т.: Фан нашриёти, 1980.
16. Ғ.Саломов. Т. Бобоев. Туркий тиллардан таржима қилиш проблемасига доир// Таржима санъати. Ғ.Ғулом номидани адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1973.
- 17.Ғ. Саломов. Таржима назарияси асослари. Тошкент, Ўқитувчи нашриёти, 1983.

- 18.И. Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
- 19.Таржима санъати. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
- 20.У.Тўйчиев. Ўзбек шеър системалари.-Т.,1981.
- 21.Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т.,1995.
- 22.Ж.Шарипов Шеърӣ таржиманинг баъзи масалалари. – Т.: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1959.
23. Н.Шукуров, Н.Ҳотамов, Ш.Холматов, М.Маҳмудов Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1979.
- 24.Б. Юсуф. Туркча-ўзбекча «алдоқчи сўзлар» луғати, – Т., Ворис нашриёти, 2009
- 25.Д.Қуронов. Адабиётшуносликка кириш. Т. 2004.
- 26.Д. Қуронов Бадиият сирлари\\Тафаккур.-1998.-№1

Луғатлар

- 27.Türkçe Sözlük 1.cild Ankara, 1988.
- 28.Türkçe Sözlük 2.cild Ankara, 1988.
- 29.Türkçe Sözlük. Ankara, 2005.
- 30.Турецко-русский словарь. Москва, 1977.
- 31.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1-том. Т, 2007.
- 32.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. Т, 2007.
- 33.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 3-том. Т, 2007.
- 34.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 4-том. Т, 2007.
- 35.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 5-том. Т, 2007.
- 36.Ўзбекча-туркча ва туркча-ўзбекча изоҳли луғат. Т. 1995.
- 37.